

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
TA'LIM VAZIRLIGI

D.A. Asqarova, M.X. Miryusupova



KICHIK ME'MORIY
SHAKLLAR

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
580100 — Arxitekturaviy loyihalash asoslari fanidan
bakalavrlar uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan*



«TURON-IQBOL»
TOSHKENT
2005

1 p. 06

Taqrizchilar:
arxitektura fanlari doktori D.A. NOZILOV,
katta o'qituvchi N.D. ABDULLAYEVA

D.A. Asqarova, M.X. Miryusupova
Kichik me'moroy shakllar. O'quv qo'llanma. T.:
«Turon-Iqbol» nashriyoti, 2005. — 96 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma arxitektura yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, me'moriy loyihalash asoslari bo'limiga kiruvchi «Kichik me'moriy shakllar» kurs loyihasi uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanma «Kichik me'moriy shakllar» kurs loyihasining bajarilish talablari, shartlari haqida to'liq ma'lumot beradi.

Talabalarga yetkazishga mo'ljallangan ushbu materiallar uch semestr davomida o'qitiladi. «Kichik me'moriy shakllar» uchinchi semestr davomida bajariladi. U ikki topshiriqdan iborat. Har bir topshiriq so'ngida mavzuni mustahkamlash uchun savollar, tayanch so'zlar ro'yxati berilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov Oliy majlisning to'qqizinchi sessiyasida kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va butun ta'lim tizimi islohoti haqida: hayotimizni hal etuvchi muhim masalalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor qonun loyihalari ham bor, — degan edi. Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi inson omiliga juda katta ma'no beradi, maqsad va vazifalar strategiyasidan tortib to ta'lim-tarbiya jarayonining hamma qirralarini aniq ochib beradi. Dasturlar majmuasi negizida inson asosiy omil hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash tizimida shaxs bosh subyekt sifatida ko'riladi, bu bir vaqtning o'zida ta'limiy xizmatlarni ham iste'molchisi, ham yaratuvchisi deb qaraladi. Jamiyat va davlat, ishlab chiqarish, fan va uzluksiz ta'lim barkamol ijodkor shaxsning shakllanishida kafolat hisoblanadi. Prezident I.A.Karimov Milliy dastur to'g'risidagi o'z nutqida faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligingni anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin deb ta'kidlagan edi.

Har tomonlama yetuk raqobatbardosh kadrlarning yangi avlodi istiqbolga monand vazifalar qo'yish va ularni yechishga qodir, yuqori saviyali fikrlash madaniyatiga ega, siysiy ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy axborotlar dunyosida mustaqil o'z yo'lini tanlay oladigan bo'lishi kerak.

KICHIK ME'MORIY SHAKLLAR VA ULARNING YARATILISHIDA QURILISH MATERIALLARINING AHAMIYATI

Me'moriy loyihalash asoslarini o'qitish jarayoni eng sodda, kichik mavzulardan boshlanadi, keyinchalik ularning funksional tuzilishi, o'lchovlarining kattalashi-shi, loyihalanayotgan inshootning konstruktiv asosi biroz murakkablashib boradi. Talaba loyiha haqida tushuncha-ga ega bo'lib, kerakli ko'nikmalarni olgandan so'ng, quri-lish amaliyotiga, me'moriy loyihalashning haqiqiy jarayoniga yaqinlashadi.

Me'moriy loyihalashning boshlang'ich bosqichida ta-labaning oldiga uncha katta bo'lmagan inshootni loyiha-lash vazifasi qo'yiladi. U bosh rejada erkin joylashgan bo'lishi kerak. Undan tashqari talaba oldiga quyidagi vazifa qo'yiladi. Bir vaqtning o'zida loyihalanayotgan inshoot-ning amaliy, badiiy jihatlarini qamrab olishi kerak. Uncha murakkab bo'lmagan inshootlarni loyihalashga quyidagi mavzular kiradi. Odatda, me'morlar ularni «kichik me'-moriy shakllar» deb atashadi. Uncha murakkab bo'lmagan inshootlar quyidagilar: shiyponlar, ochiq pavilyonlar, dam olish joyi, kioskalar, favvoralar, bolalar maydonchalari, dekorativ devorlar, ko'priklar, istirohat bog'iga kirish joyi, bekat, choyxona, muzqaymoq qahvaxonasi, dala hovli, baliqchilar uyi, ovchilar uyi, gul do'koni, suvenirlar sotish pavilyoni, avtoshohbekat.

Istirohat bog'i, xiyobonlarni bezashda kichik me'mo-riy shakllar alohida ahamiyatli o'rin tutadi.

Suvenirlar sotish uchun mo'ljallangan do'koncha, qahvaxona, choyxona, avtoshohbekat ko'chalarni, may-donlarni bezash uchun xizmat qiladi. Xiyobon, anhorbo'yi,

alleya, ko'cha kabilar tashqi muhitning bog'lovchisi hisoblanadi. Bu yerda me'mor takrorlanishga yo'l qo'ymasligi kerak. Shahar qurilishidagi bir xillikdan qochishi kerak.

Kichik me'moriy shakllarning badiiy jihatlari har doim ham kerakli darajada javob bera olmaydi. Bir xil vaqtda ularning joylashishi noo'rin, begona xarakterga ega bo'ladi, yo'lovchi va transportga xalaqit beradi. Maydon va yo'lakchalarni to'sib qo'yadi. Kichik me'moriy shakllar me'morligi umumiy ko'rinishi yengil bo'lib, shaharning umumiy qurilishini buzib ko'rsatmasligi kerak.

Istirohat bog'i, skver, xiyobonlarni, maydonlarni tashkil etishda asosiy element bo'lib dekorativ haykaltaroshlik hisoblanadi. Monumental haykaltaroshlik o'zining o'lchamlari va erkin ifodalanishi, shakllarning plastikasi bilan uncha katta bo'lmagan makonga xizmat qiladi. Dekorativ haykaltaroshlik bir necha turga bo'linadi: aylana, relyefli barelyefli.

Kichik shakllarda ahamiyatli o'rin egallagan shakllar ochiq shiypon, ular kompozitsiyasining rejadagi soddaligi, hajmi, atrof-muhitdagi ochiqlik xususiyatlari bilan katta rol o'ynaydi.

Ularni baland sohil bo'yiga, anhor, ariq, xiyobonlarning tugagan joylariga joylashtirish mumkin.

Istirohat bog'i inshootlari guruhiga, asosan, yengil panjarali, ko'katlar bilan qoplangan inshootlar — pergolalar yoki trilyajlar kiradi. Ular yog'ochdan, temirdan, temirbetondan bo'lishi mumkin. Istirohat bog'i me'morligida o'simlik bilan qoplangan yengil karkas inshootlar asosi og'ir devorni ushlab turuvchi tabiiy toshlardan terilgan bo'ladi.

Dam olish joyi atrof-muhitga mos kelishi lozim. Bu yerda turli-tuman favvoralar, o'rindiqlar, dekorativ devorlar, panjaralar, fonarlar, vitrajlar, tepaliklar, haykallar, kaskadlar va h.k.lar bo'lishi mumkin. Keyingi kichik

me'moriy shakllarga soyabon, soyabonli pavilyonlar kiradi. Ular bolalar o'yin maydonchalarida, turar joy mikrorayonlari oldidagi maydonchalarda, hayvonot bog'larida, shahar istirohat bog'larida, skverlarda va h.k. joylarda qurilishi mo'ljallangan.

Pavilyon maydondagi asosiy me'moriy reja asosidagi unsur hisoblanadi. Yozgi pavilyon gul, kitob, suvenir, salqin ichimliklar, shirinliklar sotuviga moslashtirilgan bo'lishi mumkin. Bu yerda me'morning asosiy vazifasi rejaning funksional yechimi va fasadning atrof-muhit bilan birligini tashkil etishdan iborat bo'ladi. Pavilyonning umumiy kompozitsiyasiga va butun maydoniga istirohat bog'i me'morligiga qo'shimcha elementlar kiritish mumkin, ularga to'siqlar, haykallar, trilyaj va panjaralar, devorni ushlab turuvchi tirgovichlar kiradi. Undan tashqari, bu pavilyonlar maxsus ko'rgazmalarni o'tkazish uchun ham xizmat qilishi mumkin.

Bu vazifalarni hal qilish uchun har tomonlama yaxshi ko'rinish kasb etishiga erishish kerak. U tekis maydonda, uncha katta bo'lmagan relyefda, anhor bo'yida, sohilda, o'ziga tegishli maydon bilan hamohang bo'lishi kerak. Istirohat bog'i bo'lagi, xiyobon, bolalar maydonchalari (ushbu narsa hayvonot bog'ida ham bo'lishi mumkin).

Bolalar maydonchalari bosh rejasining kompozitsion yechimini hal qilishda basseynlar, sirpanchiqlar, o'rindiqlar, ko'priklar, trilyajlar, qum maydonchalari, vazalar va boshqa kichik me'moriy shakllar soyabon, pavilyon va maydon rejasi bilan mos kelishi kerak.

Shaharsozlik vazifalari hisobida, yangi me'moriy-rejaviy shahar tuzilishida binolarning fazoviy muhitda ancha erkin joylashishi, ulardagi yashil maydonlarning tashkil etilishi va jamoat savdo markazlari, yo'lovchilar harakati uchun alohida hududlar tashkil etilishi, dekorativ haykaltaroshlik kompozitsiyalarining joylashishi yangi usullar kelib chi-

qishiga olib keladi. Kioskalar, muzqaymoq qahvaxonalari, choyxona, gul sotishga mo'ljallangan pavilyonlar, keramik suvenirlar xalq amaliy san'at asarlari sotuviga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Savdo kioskalari yoki do'konchalari, odatda, turar joy mikrorayonlari, loyiha qurilishlari, jamoat savdo va boshqa markazlari, shaharning butun umumiy madaniy-maishiy tizimi ushbu aholi yashash punkti bilan bog'lanishi kerak.

Savdo kioskalari, pavilyonlar, yo'lakchalarda telefon avtomatlar, oyoq kiyim tozalash, ta'mirlash kioskalari, bostirmalar, undan tashqari gazeta uchun stendlar, e'lonlar, ko'cha fonarlari va favvorolari joylashtirilishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan elementlar tashqi obodonlashtirish, zamonaviy shahar uchun mutlaqo zarur hisoblanadi. Ular shahar tashqi obodonlashtirish umumiy tizimida o'z o'rini topishi kerak.

O'zbekistonning issiq iqlimi muzqaymoq qahvaxonasini barcha skver, xiyobon, shahar, rayon markazlarida, maktab, bog'cha, hayvonot bog'larida, teatr oldi maydonlarida juda ko'plab qurish lozimligini talab etadi.

Choyxona — bu juda ko'p uchraydigan kichik me'moriy shakl. U har bir mahallada quriladi, xiyobonlarda, skverlarda, istirohat bog'larida, shahar maydonlarida, bozorlarda, yarmarkalarda ko'plab uchraydi. Choyxona o'zining funksional-tabiiy jihatlari bilan juda boy. Suvenirlar, pavilyonlar, gul do'koni, keramika, o'yinchoqlar sotuviga mo'ljallangan do'konchalar me'morlik funksiyasiga mos kelmog'i lozim. Ular mehmonxonalar, yo'lovchilar o'tish joylari, xiyobonlarga, skverlarga, aeroportlarga, vokzallarga, bozorlarga ko'plab quriladi.

Obodonlashtirish elementlariga shunday kichik me'moriy shakllardan shaharlararo avtoshohbekat ham kiradi.

Avtoshohbekat atrof-muhit me'morligi bilan uyg'unlashishi, mos kelishi kerak. Avtobekatni loyihalayotganda

yo'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida yozgi salqin shiypon bo'lishi maqsadga muvofiq. Qishda esa qishki yopiq kutish xonasi, hojatxona, bufet, buyumlarni saqlash xonalari bo'lishi kerak.

Shahardan tashqari me'moriy inshootlarga quyidagilar kiradi:

Ovchilar uyi, baliqchilar uyi, dala hovli. Ushbu kichik shakllar O'zbekistonning bog'li, relyefli o'rmon hududlarida, daryo sohili, hovuz, ko'l bo'ylarida joylashishi mumkin. Bu yerda talaba oldida katta imkoniyatlar ochiladi. Dala hovli ikki sathli relyefga ega bo'lishi mumkin. Bosh rejani hal qilayotganda mashina turadigan joy, suvga tushish joyi kabi muhitlarni inobatga olish lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan kichik shakllarning me'moriy joylashishi, yangi elementlarning shahar va shahar oldi, tashqi ko'rinishida katta ahamiyat kasb etadi. Yana ahamiyatli narsa shuki u yoki bu qurilish qaysi qurilish materialidan iborat bo'lishi kerak?

Quyidagi qurilish materiallari g'isht, beton, keramika, tabiiy tosh kabilarsiz kelajak me'morligini ko'z oldiga keltirish mumkin emas. Shaharlar qurilishida boy me'moriy merosdan keng foydalanilgan.

Zamonaviy qurilish katta hajmlarni, qurilish materiallarini, asosan, temirbetonni talab qiladi. So'zsiz, temirbeton solishtirilganda arzon, ishlab chiqarishda texnologiyasi qulay, plastikasida ularga xohlagancha faktura, ishlov berish mumkin. Beton yuqori dekorativ jihatlar bilan ajralmaydi, uni arzonligi, tayyorlanishining soddaligi bilan keng miqyosda qo'llash sanoat uchun kerakli. Ajoyib, arzon temirbeton, bugungi qurilish amaliyotida mayda g'ishtni siqib chiqara olmaydi. G'isht «Xomiy va himoyachi» bo'lib, me'morlikni uning o'zi boshqaradi.

Temirbeton ishlab chiqarish zavodlari rivojlanmasa, g'ishtsiz yorqin turli qurilishlarni yaratish qiyin bo'lar edi.

Temirbeton sovuq geometrik shaklni tashkil etib, butun me'morlikda davlatlararo usulni namoyish etadi. G'isht esa mahalliy material, u hamisha mahalliy bo'lib qoladi. U joy va mahalliy an'analar bilan bog'liq, shuning uchun O'zbekiston me'morligi O'rta Osiyodagi boshqa davlatlar me'morligidan alohida ajralib turadi.

Zamonaviy qurilishlarda g'ishtdan tipik binolarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Alohida loyiha bo'yicha bajarilgan binolarni qurishga qulay material hisoblanadi. Kelajak me'morligini g'ishtsiz tasavvur etish qiyin. Lekin qadimgi madaniyatimizning boy tarixini tasavvur qila olamiz. Uning umri uzoqligini gapirmasa ham bo'ladi. Buning uchun Xiva, Samarqand, Buxoroni eslash kifoya.

Qadimgi an'anaviy qurilishlarda foydalanilgan, yer sharining ko'pgina joylarida qo'llaniladigan qurilish materiallaridan biri — bu tabiiy tosh hisoblanadi. U me'morlik yo'nalishining shakllanishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Ularga yorqin misol bo'lib qadimgi Misr, qadimgi Gretsiya kiradi. Toshning go'zalligi, uzoq umrliligi, ranglar jilosining rang-barangliligi, rasmlarining boyligi haqiqiy me'morlik inshootlarning shoh asarlarini yaratishga imkon beradi. Ushbu materialning umri boqiyliigi me'morlik shoh asarlarining bizning davrimizgacha yetib kelishligini ta'minladi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tabiiy tosh qurilishda turli-tumandir. Hozirgi vaqtda u kichik me'moriy shakllarda, obodonlashtirishda, pardozlash ishlarida, xiyobon, bog'larni bezatishda, ko'priklar, nozik dekorativ o'ymakorlikda qo'llaniladi. Tabiiy tosh istirohat bog'lari, bog'lar, dam olish joylari, maydonlarni bezashda tengi yo'q material hisoblanadi. Bu yerda toshdan ishlov berilgan holda foydalanilmaydi. Tabiiy tosh bo'laklari, mayda tosh kichik me'moriy

shakllarni yaratishga xizmat qiladi. Bu tabiiy tepalik bo'lishi mumkin, unda marmar haykal o'rnatilgan bo'lishi mumkin. O'yib o'rnatilgan tosh, favvora bo'lishi mumkin. Monumental inshootlarda toshning o'rmini hech narsa bosa olmaydi. Dekorativ devorlar, chiroyli metall panjara-lar bilan birgalikda tosh ustun, o'yma kapitellar har bir istirohat bog'i burchagini bezatishi mumkin. Tosh nafa-qat qadimgi Gretsiyada qo'llanilgan, balki betakror Gru-ziya me'morlik ansambllarida, Pribaltikada, an'anaviy Yapon bog'larini tashkil etishda, istirohat bog'larda, hay-vonot bog'larida va h.k. da ham qo'llanilgan.

Me'morchilikda beton, g'isht, tabiiy toshdan tashqari sopol juda katta o'rin egallaydi. Sopol qadimgi tabiiy material bo'lgan loyni pishirish yo'li bilan olinadi.

Loy qadim-qadim zamonlardan beri ota-bobolarimiz-dan qolgan bo'lib, devor va himoya vazifasini o'tagan. Undan ovqat pishirish, uni saqlash uchun buyumlar, o'yinchoq, taqinchoq, amulet va boshqa narsalar yasalgan. Loy inson qo'lida haqiqiy san'at asariga aylangan.

Jahon xalqlari ijodini grek vazasi, xitoy chinnisi, rus idishlari, o'zbek sopol idishlarisiz tassavur etish qiyin.

Sopol pishiqligi, umrboqiyligi, olovga chidamliligi, suv o'tkazmasligi va nihoyat loy materialining oson olinishi bilan keng tarqalgan qurilish materiali hisoblanadi.

«Samarqand marvaridi» — Shohi-Zinda ansambli XII asr naqshli o'yma terrakotasining qo'llanilishiga yorqin misol bo'la oladi.

XIV asrdan boshlab mayolika va mozaika qo'llanila boshlandi. Temuriylar maqbarasi Go'ri Amir, Bibixonim masjid-maqbarasi, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madra-salari epigrafik yozuv va o'yma naqshlar bilan qoplangan. Buxoro, Xiva, Qo'qon va O'zbekistonning boshqa sha-harlari o'zining sopoli bilan jahonga mashhur. Rim, Iyerussalim, Iroq, Suriya, Ozarbayjon, Afg'oniston

me'morchiligida sopoldan keng foydalanilgan. Bu material yuqorida ko'rsatilgan davlatlar uchun keng tarqalgan qurilish materiali hisoblanadi.

Beton, g'isht, sopol, tabiiy tosh bilan bir vaqtning o'zida yog'och konstruksiyasi ham qo'llaniladi. Yog'och o'ziga xos issiq fakturali, turli teksturasi bilan kishiga yoqimli ta'sir o'tkazadi. Devorga yog'och qoplama qilish, pol, ustun, yog'och o'rindiq, yog'ochli haykalchalar, yog'ochli panjaralar, yog'ochli zinalar, ko'priklar, suvga tushish joyi qurilishlarida yog'ochdan foydalanish me'morlarga keng imkoniyatlar yaratdi.

Sopol, tabiiy tosh, g'isht va yog'och keng tarqalgan, arzon qurilish materiali hisoblanib, ulardan, ayniqsa, kichik me'moriy shakllarni yaratishda keng foydalaniladi.

TALABANING ILK IJODIY LOYIHASI

Loyihalash murakkab jarayon bo'lib, onsonlik bilan kechmaydi. Har qanday inshootni xoh u kichik bir dam oladigan joy bo'lsin, xoh u bir kichik do'kon bo'lsin, xoh u turar joy binosi, kinoteatr, teatr, zavod, fabrika va hokazo bo'lsin, qo'polroq qilib aytganda uni o'ylab topish kerak bo'ladi.

Me'moriy inshootga qo'yiladigan hamma talablarga javob berish va ularni bir joyga to'plab, ko'z oldiga keltirishi uchun talaba (me'mor) me'moriy kompozitsiya fanini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Me'moriy kompozitsiya — lotinchada «compositio» — birlashtirish, tuzish, bog'lanishdir. Me'moriy kompozitsiya deb ma'lum bir qonunga va inson tuyg'usiga asoslangan holda inshootning ichki va tashqi elementlarini birlashtiruvchi, ya'ni bir-biri bilan uyg'unlashtirilgan, moslashtirilgan holda bir butun asar holatiga keltirishga aytiladi.

Shunday qilib, kompozitsiya asar qurilmasi va oxir oqibat, inson aql-idroki, iste'dodi, iqtidori, mehnati, ilmi hosi-lasidir.

Shuning uchun ham bu jarayon me'morlarning, loyi-hasozlarning kasbiy tajribalariga, ilmiy yondashuvlariga asoslangan holda me'moriy maktab va oliy o'quv muas-sasalarida 4 bosqichda bajariladi. Bular:

1. G'oya o'ylab topish (bo'lajak inshoot uchun).
2. Eskiz. G'oyani qog'ozda qoralama aks etdirish.
3. Klauzura bajarish. Ana shu eskizni biroz rivojlanti-rib, asosiy o'lchamlarini qo'yib, erkin holda (o'qituvchi-ning aralashuvisiz), tekshiruv (kontrol) ishi sifatida bir list vatmanga erkin grafikada chiziladi.

4. Eskiz va klauzuraga asoslangan va ulardagi xato va kamchiliklarni hisobga olgan holda oqqa qalamda chizi-ladi va o'qituvchining ko'rigidan o'tgandan so'ng, u bilan maslahatlashib yo chiziqlik grafikada, yoki tonal (tusli) yo bo'lmasa, rangli grafikada tugatiladi.

Loyihalash maskanlarida, loyihalash ustaxonalarida bu jarayon boshqacharoq tarzda, quyidagi bosqichlarda bo'ladi:

a) g'oya-eskizni bajarish: buyurtmachi bergan joyga, uning atrofini hisobga olib, bundan tashqari uning moli-yaviy ahvoli va undagi bor qurilish mollarini hisobga olgan holda g'oya-eskiz tayyorlanadi va albatta buyurtmachi-ning xohish-istagini hisobga olgan holda amalga oshiri-ladi;

b) texnik loyiha bilan buyurtmachi, loyihaga ruxsat beruvchi mas'ul tashkilotlar va shaxslar ko'rib tanishish-lari kerak. Keyingi bosqich oson kechishi uchun avvalgi bosqich, ya'ni texnik loyiha, yaxshi me'moriy grafika tan-lanib, chizib tugallanishi kerak;

d) ishchi chizma texnik loyihaga asoslangan holda, mu-handis-konstruktorlar bilan yaqin hamkorlik hamda ora-

liq muxandislar bilan birgalikda (geolog, elektrik, suv quvuri va kanalizatsiya mutaxassislari, texnolog va boshqalar) chizmalar majmuasi (albom) tayyorlanadi va ekspertizadan o'tkazib buyurtmachiga topshiriladi.

Uchala bosqich ham loyihaning tushuntirish xati bilan birga topshiriladi.

Endi buyurtmachi va pudratchi o'zaro munosabati xususida. Buyurtmachi — ma'lum bir inshootning loyihasini me'morga buyurtma beruvchi va uning haqqini to'la-to'kis to'lovchi jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkin. Pudratchi — o'z navbatida, buyurtmachi tomonidan berilgan buyurtma asosida inshootning to'la-to'kis loyihasini ekspertizadan o'tkazib, buyurtmachiga topshiruvchi (jismoniy yoki yuridik shaxsdir) me'mordir.

Buyurtmachi-pudratchi orasidagi jarayon (muomala) qanday kechishi haqida qisqacha izoh. Buyurtmachi xoh u, xoh bu inshootning loyihasiga buyurtma berishdan oldin pudratchini o'zining shartlari bilan tanishtiradi. Bu shartlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) bo'lajak inshootning aniq joyi ko'rsatiladi. Uning atrofidagi imorat va inshootlarning hisobga olinishini aytadi. Ya'ni inshoot quriladigan joydagi atrof-muhitni hamda atrofdagi bino va inshootlarning me'morchiligini, kompozitsiyasini hisobga olib loyihalash kerak bo'ladi;

2) o'zining imkoniyati darajasidagi qurilish ashyolari-ni hisobga olinishini aytadi;

3) o'zining moliyaviy ahvolini aytib o'tadi;

4) inshootning loyihasi yaratilayotganda, buyurtmachi inshootda yaratiladigan qulayliklarni, albatta, uning istak-xohishini hisobga olgan holda qilish kerakligini aytadi.

Pudratchi ham, o'z navbatida, talab qilingan loyihani buyurtmachi talab qilgan shartlarga binoan bajarib topshiradi va shartnomada kelishilganidek, ish haqqini o'z vaqtida olishini talab qiladi.

INSON VA FAZOVY MUHIT

Inson nimaniki yasasa, qursa, ishlab chiqarsa — u o'zining tana yoki gavdasining o'lchamlariga, mutoanosibligiga moslashtiradi. Chunki inson o'zidan boshqa narsani bilgan emas, bilsa ham shu bilgan narsasini o'ziga solishtirish orqali uning o'lchamlarini his qila bilgan. Undan tashqari inson, albatta, nimaiki qilsa, u o'zining sharoitini yaxshilash, qulaylik yaratish, mehnatini osonlashtirish uchun harakat qilgan.

Inson tanasining mutanosibligini bilgan rassom va me'morlar qadimgi Misrdayoq qiziqishni boshlaganlar. Buyuk me'mor-usta Le Korbyuze bizning davrimizda mutanosiblik tizimini ishlab chiqdi. Ya'ni, bu tizim oltin kesma (zolotoye secheniye) prinsipiga asoslangan. Le Korbyuze «Modulor» deb nomlangan bu tizimdan imoratlarni loyihalashda foydalangan.

Demak, II kursda talaba ilk bor mustaqil loyihalashga qadam qo'yar ekan, u albatta, yuqorida aytilgan tizimdan foydalana bilishi kerak.

Insonning inshoot, xona o'lchamlari hamda shakliga ta'sirini va shundan kelib chiqqan qonun-qoidalaridan ayrimlarini misol tariqasida keltiramiz.

Insonning gavdasi, a'zolari tuzilishi va o'lchamlaridan kelib chiqadigan inshootlarning ba'zi unsurlari o'lchamlariga e'tibor beraylik. Agar zinaning eni 30 sm, balandligi 15 sm olinsa, odam zinadan chiqib-tushishi oson bo'ladi. Eshikning eni 60 sm dan, bo'yi 200 sm dan kam olinmaydi. Kursining o'tiriladigan sathi 45 sm balandlikda loyihalanadi. Stolning balandligi esa aksari 75 sm qilinadi.

Bo'lajak me'mor shu narsani hech qachon unutmasligi kerakki, har bir qurilgan imorat, uning kichik unsurlarigacha inson uchundir. Shuning uchun biz insonning yashashi va ijod qilishi uchun sharoit yaratishimiz kerak.

KICHIK ME'MORIY SHAKLLAR

Talabalar birinchi bosqichda — akademik bo'yashni (otmovka), tush grafikasini; «Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari» darslarida esa me'morlikdagi metr, ritm, hajmiy, fazoviy, frontal kompozitsiya va boshqa ko'p tushunchalarni, «Arxitektura tarixi» darsidan esa turli imoratlar mohiyati nimadan iboratligini, uning konstruksiyasini va nimaga xizmat qilishini, badiiy jihatlarini, shahardagi rolini va boshqa tushunchalarni o'rganadilar. Ana shulardan so'ng talabalar navbatdagi mashg'ulotga, ya'ni loyihalashdan, aniqrog'i «kichik me'moriy shakllar»ni loyihalashga ilk qadam qo'yadilar. Me'moriy loyihalashning maqsad — talabalar loyihalashning asosiy bilimlarini va ko'nikmalarini egallashidir.

Kichik me'moriy shakllar loyihasining asosiy vazifasi talabani eng sodda me'morlik inshootlarini loyihalashni o'rgatishdir. Talabalar eskizlar chizish, kompozitsiyadan ko'pdan-ko'p mashqlar qilish orqasida, ijodiy yo'l bilan bo'lajak inshootning loyihaviy modelini (shaklini) yaratishni o'zlashtiradilar.

Ijodiy o'ziga xoslikni rivojlantirish, estetik va badiiy jihatlarini paydo qilish, fazoviy tarzda fikr yuritishni shakllantirish, grafik jihatdan usta bo'lish, ijodiy dunyoqarashning shakllanishini ta'minlab berish va hokazolarning hammasi me'moriy loyihalash fanining asosiy maqsadi va vazifasidir.

QURILISH ASHYOLARI VA KONSTRUKSIYALARI

Yuqorida keltirilgan kichik me'moriy shakllar o'zining funksional, konstruktiv va texnologik jihatlari, me'moriy yechimlari, fasad va reja yechimlari, kompozitsion jihatlari

bo'lgani kabi, ularga ishlatiladigan qurilish ashyolari ham turli-tumandir. Yosh me'mor (talaba)ning asosiy vazifasi ana shu qurilish ashyolarini inshootning o'ziga qarab tanlay bilishi va uni joy-joyiga ishlata bilishidir.

Quyida biz kichik me'moriy shakllarda ishlatish mumkin bo'lgan qurilish ashyolaridan ba'zilarini sanab o'tamiz: beton, temir-beton, temir, yog'och, g'isht, tosh, shlakoblok, tuproq, aluminiy, duraluminiy, oyna, jumladan, dekorativ oyna, plastik ashyolar, sopol, turli xil suvoq mahsulotlari (chet elda va O'zbekistonda chiqadigan), tunuka, jumladan, oq tunuka, shifer, sopol cherepitsa, cherepitsa shaklidagi tunuka va boshqalar.

Kichik me'moriy shakllar haqida qisqacha tushuncha. Albatta, «kichik» degan so'z juz'iy ma'noda, ya'ni uning boshqa inshootlarga nisbatan kichikroq bo'lganligi uchun aytilgan so'z bo'lib, ma'no jihatidan u hech qachon boshqa inshootlardan qolishmaydi. Ya'ni, har qanday inshootni xoh u «kichik» bo'lsin, xoh «katta» uning g'oyasini o'ylab topish kerak bo'ladi. Bu esa oson jarayon emas. Lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik me'moriy shakllar boshqa inshootlarga nisbatan ancha kichik bo'lganligi uchun, uning loyihasiga nisbatan kamroq vaqt ketadi va birinchi qadamni ana shu topshiriqdan boshlash to'g'ri ekan.

Albatta kichik me'moriy shakllarning shaharsozlikda o'z o'rnini bor. Lekin oddiy, ya'ni mutaxassis bo'lmagan inson buni sezmaydi yoki sezsa ham o'z-o'zidan shunaqa bo'lishi kerak deb o'ylaydi. Har qanday inshootni, ana shu jumladan, kichik me'moriy shaklni ham berilgan joyning shart-sharoitiga, atrof-muhitga kompozitsion jihatdan uzviy bog'lash, albatta, me'morning mahoratiga, bilimiga va iqtidoriga bog'liq.

Kichik me'moriy shakllar o'zining funksiyasi va konstruksiyasiga qarab har turli bo'lishi mumkin. Lekin ki-

tob aynan talabalar auditoriyasiga mo'ljallanganligi uchun, ko'zga ko'proq tashlanadigan, ko'proq ishimiz tushib turadigan shakllar (inshootlar) to'g'risida so'z yuritamiz. Masalan:

1. Dam olish joylari.
2. Bolalar o'yin maydonchalaridagi ayrim shakllar.
3. Kichik suv inshootlari.
4. Kichik savdo shohobchalari.
5. Soyabonli dam olish joylari.
6. Har turli bekat va shohbekatlari.
7. Har xil mo'jaz muzqaymoq qahvaxonalari.
8. Kichik choyxonalar.
9. Shahardan tashqarida, o'rmonlarda, daryo bo'ylarida vaqtincha yashashga mo'ljallangan uylar.

10. Gul do'konlar va hokazolar shular jumlasidandir. Kichik me'moriy shakllarni loyihalash pog'onalariga (etaplarga) bo'linadi. Birinchi kursni endi bitirgan talaba uchun birdan mustaqil ravishda loyihalash, yangi bir inshoot ustida g'oya o'ylab topish va uning loyihasini amalga oshirish qiyin. Ana shuning uchun kichik me'moriy shakllarni shartli ravishda ikki pog'onada loyihalash-tiriladi.

Talabalar ana shu ikki pog'onani muvaffaqiyat bilan bosib o'tib, keyingi bosqichlardagi loyiha ishlarini qiynalmasdan davom ettirishlariga zamin yaratiladi.

I — quyi pog'ona topshirig'i: Funksiyasi juda ham sodda ichki makonsiz kichik me'moriy shakllar.

II — yuqori pog'ona topshirig'i: Ichki makonga ega aniq konstruksiyali va murakkab funksiyaga ega kichik me'moriy shakllar.

I — quyi pog'ona topshirig'i quyidagi mavzulardan tashkil topgan bo'lishi mumkin: dam olish joyi (favvora atrofida hamda buloq va hovuz atrofida dam olish joylari),

kichik ko'priklar; charxpalaklar; bolalar o'yin maydonchalari va ulardagi ayrim attraksionlar.

II — yuqori pog'ona topshirig'i quyidagi mavzulardan tashkil topgan bo'lishi mumkin: muzqaymoq va salqin ichimliklar qahvaxonasi, kichik choyxona, shohbekatlar (tumanlararo), ovchilar uyi, baliqchilar uyi, gul do'koni.

Loyihalarda bajarilishi shart bo'lgan chizmalar tarkibi va ularning miqyoslari quyidagicha.

1. Bosh reja — M 1:200 M 1:100.
2. Fasad — M 1:200 M 1:50.
3. Reja — M 1:100 M 1:50.
4. Qirqim — M 1:100 M 1:50.
5. Umumiy ko'rinish yoki maket.

Loyihalarni grafik bajarish uslublari turlicha bo'lishi mumkin.

1. Akademik bo'yash (otmovka) uslubi.
2. Akvarel bilan bo'yash uslubi.
3. Tush grafikasi uslubi.
4. Aerografika uslubi.
5. To'rttala uslubdan aralash foydalanish ham mumkin.

Loyiha bitta 55x75 sm o'lchamli taxtada bajariladi. Loyihalarning asosiy o'lchovlari, qirqimda asosiy balandliklarning belgilari qo'yilishi shart. Bulardan tashqari loyihani kerakli yozuvlar, ya'ni o'quv maskani nomi, talabaning ismi-sharifi, guruhi va rahbarning ismi-sharifini yozish bilan tugallanadi.

Quyida biz yuqorida qayd etilgan topshiriq va mavzular bilan yaqindan tanishtiramiz.

Talabalar birinchi kursda juda ko'p fanlarni o'zlashtiradilar. Masalan: «Me'moriy loyihalash asoslari» darsida akademik yuvishni (otmivka), tush grafikasini; «Me'moriy kompozitsiya» darsida me'morchilikdagi metr-ritm, hajm-fazoviy uzviylik, frontal kompozitsiya, chuqur fazo-

viylik va boshqa ko'p tushunchalarni; «Me'morlik tarixi» darsidan esa, imorat o'zi nimadan iboratligi, binoning konstruksiyasi va nimaga xizmat qilishi (funktsiyasi), badiiy jihatlari, shaharsozlikdagi roli, uning tarixi va boshqa tushunchalarini. Ana shulardan so'ng talabalar loyihalash darsiga, ya'ni «Kichik me'moriy shakllar» faniga ilk qadam qo'yadilar. Bu loyiha birinchi kursdagidan farqli o'laroq, talabani birinchi bor mustaqil ishlashga undaydi.

«Kichik me'moriy shakllar» bosqich loyihasi asosan uchta topshiriqdan iborat bo'lib, ikkinchi bosqichning birinchi yarmida o'tiladi. Har bir topshiriq, o'z navbatida, bir necha xil mavzulardan iborat.

1 - topshiriq

Unga kiruvchi mavzular:

1. Dam olish joyi, favvora.
2. Buloq va hovuz atrofida dam olish joyi.
3. Kichik ko'priklar va charxpalak.
4. Bolalar o'yin maydonchasi.

FUNKSIYASI JUDA HAM SODDA ICHKI MAKONSIZ KICHIK ME'MORIY SHAKLLARNI LOYIHALASH

Albatta, har qaysi talabada kishi tabiatiga xos bo'lgan oddiy savol tug'iladi. Ya'ni, nega aynan shu topshiriqdan mustaqil loyihalashga birinchi qadamni bosish kerak. Bu savolga biz baholi qudrat javob berishiga harakat qilamiz.

Aytaylik, jarrohlikka o'qitilayotgan talabaga yoki shu mutaxassislikni endi bitirgan shifokor qo'liga yurak xastaligi bilan kasallangan kishini topshirish mumkin bo'lmaganidek yoki g'isht terishni bilmagan yoki endi o'rganayotgan g'isht teruvchiga butun boshli imoratning g'ishtlarini chok-chokiga to'g'rilab terishni, ya'ni imorat devorining qulab ketish-ketmasligini shu odamga ishonib topshirib bo'lmaganidek, mustaqil loyihalashga ilk bor qadam qo'yayotgan talabaga o'ta jiddiy hisoblangan yashash uylarini, hatto to'rtta ustun va tomdan iborat bo'lgan kichik inshootlarni ham berib bo'lmaslik aniq.

Demak, avval ularni asta-sekin yuqorida sarlavhada aytilgan funksiyasi juda ham sodda ichki makonsiz kichik me'moriy shakllardan boshlab, mustaqil loyihalashga olib kirishimiz kerak. Funksiyasi juda ham sodda degan jumlaning biz faqat solishtirish yo'li bilan tushuntirishimiz mumkin. Ya'ni, misol uchun yashash uyining ichidagi

vazifalarni olsak, bu yerda inson uchun kerak bo'lgan murakkab me'moriy tarixiy yechimlar, inson uchun kerakli bo'lgan har xil qulayliklar yotibdiki, bu vazifalarni hal qilish uchun me'mor sifatida ancha tajriba kerak bo'ladi. Endi kichik bir hovuzni olaylik, ana shuning atrofida kishilar uchun yaxshi dam olishga sharoit yaratish kerak.

Bizningcha talaba bu va shunga o'xshash vazifalarni bajarishda tajribali o'qituvchining yordami bilan qiynalmasdan maqsadga erishishi mumkin.

Biz quyida 1—2-tajribalar bo'yicha 2-bosqich talabalarining ishlaridan namuna keltirib, ularni salbiy va ijobiy tomondan ta'riflashga harakat qildik, lekin bu degan so'z ushbu qo'llanmani ko'rgan talabalar ana shu ishlardan va fikrlardan foydalanishi kerak degan so'z emas, aksincha, ana shu loyiha va fikrlardan to'g'ri xulosa chiqarishi kerak bo'ladi.

DAM Olish JOYI

Dam olish joyini loyihalash uchun shahar istirohat bog'lari, mikrorayonlar oralig'idagi bo'sh bo'lgan ko'kamlashgan yerlar tavsiya etiladi. Dam olish joyini tashkil etish uchun tanlab olgan yer talaba tomonidan yaxshilab o'rganiladi. Tanlangan yer qayerda bo'lishidan qat'i nazar, dam olish joyi tashkil etishda foydalanilgan me'moriy shakllar o'sha yerning atrof-muhiti bilan kompozitsion jihatdan uzviy bog'langan bo'lishi bilan bir qatorda konstruktiv jihatdan to'g'ri hal qilingan bo'lishi, qurilish ashyolari tanlay bilinishi va g'oyasini qog'ozda to'la aks ettirish lozim. Yosh me'morlar oldiga yuqoridagi talablarga, usta me'mor nuqtayi nazaridan qarab, loyihalashni o'rganishdek vazifa qo'yiladi. Bundan tashqari, yuqorida misol keltirilgan joylarda favvora uning atrofida dam olish

joyi tashkil qilinadigan bo'lsa, ularning o'lchovlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

Dam olish uchun qulaylik yaratuvchi biron bir devor sifatidagi ixtiyoriy bir shakl olinadi. Ashyosi g'isht, tabiiy tosh va boshqa narsalar bo'ladi. Bu devor mozaika, temir panjara bilan bezatilishi, ishlov berilishi, uning balandligi 2—3 metrgacha, uzunligi esa 2—6 metrgacha bo'lishi mumkin.

Dam olish joyini favvora bilan birgalikda ham tashkil etiladi. Favvoraning shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun ularning o'lchovlari ham mo'ljallangan yerga qarab turlicha bo'ladi. Favvora doira shaklida bo'lsa, uning diametri 1,5 metrdan 8,5 metrgacha bo'lishi, dam olish joyini tashkil etishda yerga tosh, beton plitka, marmar plitkalar yotqizilishi mumkin.

Agar favvora to'rtburchak shaklda bo'lsa, uning eni 1 metrdan 4 metrgacha, uzunligi esa 4 metrdan 8 yoki 10 metrgacha bo'lishi mumkin. Bundan tashqari favvora butunlay boshqacha shakllarga ham ega bo'ladi (erkin shakllar).

SHIYPON (DAM OLISH JOYI)

O'zbekistonda juda ko'plab soya-salqin, so'lim bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar mavjudligi tufayli yuqoridagi vazifani talabalarga berish o'rinlidir.

Shiypon loyihasini har turdagi bog'larga hamda soya-salqin anhor bo'ylariga qurish tavsiya etiladi. Shiypon loyihasi uchun berilgan joy, atrof-muhit bilan kompozitsion jihatdan uzviy bog'lanishi bilan birga, konstruktiv jihatdan to'g'ri hal qilinishi, qurilish ashyolari to'g'ri tanlanishi va g'oya qog'ozda to'la aks ettirilishi lozim.

Shiypon uncha katta bo'lmagan, biroz konstruksiyasi murakkablashgan inshootdir. U asosan soyabon bo'lib,

uning ichidagi o'rindiqlar dam olib, suhbatlashib o'tirishga mo'ljallangan. Qurilmaning balandligi 2,5—3 m bo'lishi mumkin.

XONALAR MAJMUASI VA MAYDONI

Bu mavzuda atrofi ochiq ayvoncha-shiypn tasvirlanadi. Uning balandligi 2,5—3m, maydoni 4 m² dan 30 m² gacha bo'lishi mumkin.

BULOQ VA HOVUZ ATROFIDA DAM OLISH JOYI (SO'RI BILAN SHIYPON)

Dam olish uchun yaratilgan kichik memoriy shakllar shahar me'morchiligining keng tarqalgan hamda ajralmas qismi bo'lishi kerak. Bu shakllar dam oluvchilarning yoshlariga qarab turlicha bo'lishi mumkin:

— bolalar uchun dam olish joyi, kattalar uchun dam olish joyi va hokazo.

Joylashgan yeriga qarab ular quyidagicha bo'lishi mumkin:

— tabiiy buloqlar atrofida, sun'iy hovuzlar atrofida va hokazo.

Bunday inshootlar, asosan, istirohat bog'larida hamda buloq mavjud bo'lgan yerlarda mavjud bo'lishi mumkin. Shuning uchun talaba bu vazifani atrof-muhitga bog'lagan holda bajarishi zarur.

DAM OLISH JOYINING O'LCHAMI, MAYDONI VA MAJMUASI

— kichik shakl uchun ajratilgan yer sathi 1×1 dan to 15×25 gacha;

— o'rindiqning o'lchamlari: balandligi 40—50 sm; eni 50—60 sm; uzunligi — 1,5—3 metr va undan ham katta;
— hovuzning o'lchamlari: eni 2,0—5,0 m; uzunligi 3,0—8,0m; chuqurligi 0,8—1,5 m bo'lishi mumkin.

KICHIK KO'PRIKLAR VA CHARXPALAKLAR

O'zbekiston har xil anhor va daryolarga boy bo'lganligi tufayli yuqoridagi vazifalarni talabalarga berish o'rindir. Ko'prik va charxpalak uncha katta bo'lmagan kichik me'moriy shakl bo'lib, ularni asosan mahallalardan, istirohat bog'laridan, odamlar hovlisidan va boshqa joylardan o'tgan, eni taxminan 3—12 metr atrofida oqova ariq yoki anhorlarda tashkil qilish mumkin. Yosh me'morlarning (talabalarning) oldiga qo'yilgan vazifa, asosan, xalq me'morligiga usta me'mor nuqtayi nazaridan qarab loyihalashdan iborat. Ya'ni inshootni atrof-muhit bilan kompozitsion jihatdan uzviy bog'lash bilan birga konstruktiv jihatdan to'g'ri hal qilish, qurilish ashyolarini tanlay bilish va g'oyasini qog'ozda yaxshi aks ettirish lozim.

1. Charxpalak

a) ariq 3 yoki 6 metr, chuqurligi 2 yoki 5 metr bo'lganda charxpalakning diametri 1,5 yoki 4,5 metr bo'ladi;

b) suvning eni 10 yoki 12 metr, chuqurligi 4 yoki 6 metr bo'lsa, charxpalakning diametri 3,5 yoki 5 metr bo'ladi.

2. Ko'prik

a) ariq 3 yoki 6 metr bo'lsa, ko'prikning uzunligi 7 yoki 10 metr, eni 1—3 metr bo'ladi.

b) ariqning eni 10 yoki 12 metr bo'lsa, ko'prikning uzunligi 14 yoki 16 metr, eni 1—6 metr bo'ladi.

BOLALAR O'YIN MAYDONCHALARI

Bolalar o'yin maydonchalari maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalari, mikrorayonlar hududida, bog'larda, xiyobonlarda va boshqa joylarda joylashishi mumkin.

Bolalar o'yin maydonchalari — kattagina biror-bir bolalar o'yingohlarining bir qisminigina tashkil etuvchi element sifatida ham bo'lishi mumkin. Bolalar o'yin maydonchalarini loyihalash uchun berilgan joyga qarab (ya'ni bizning holatda tanlagan joyga qarab) maydonchaga o'yin elementlarini belgilab olish kerak. Undan tashqari shu o'yin maydonchasiga mo'ljallangan kichik me'moriy shakllarni vazifasiga qarab hududlarga ajratib chiqqan ma'qul, shu bilan bir qatorda, ularni kompozitsiya jihatidan birlashtirishga erishish, undan tashqari fazoviy hajm uzviy bog'liqligini topishni va asosiylik, ikkilamchilik uslublariga to'g'ri amal qilishni bilish kerak.

Bolalar o'yin maydonchasiga kiruvchi asosiy shakllar majmuasi va maydoni.

Bular qatoriga harakatli o'yinlar uchun jihozlar, sirpanchiqlar, arg'imchoqlar: «bekinmachoq» uchun mo'ljallangan devorlar va labirintlar, qum bilan o'ynash uchun mo'ljallangan jihozlar, har xil hovuzlar, o'rindiqlar, so'rilar va boshqalar kiradi. Bolalar o'yin maydonchalaridagi shakllarning katta-kichikligi, ko'p-kamligi, uni o'rab turgan atrof-muhitga qarab har xil bo'lishi mumkin. Masalan, eng kichik maydon 50 m^2 dan to $1000\text{--}2000 \text{ m}^2$ gacha yetishi mumkin.

Birinchi topshiriqni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kichik me'moriy shakllar deb qanday shakllarga aytiladi?

2. Birinchi topshiriqqa qanday vazifalar kiradi?

3. Vazifani bajarish tartibi qanday?
4. Loyiha tarkibiga nimalar kiradi?
5. Loyiha qanday nisbatlarda bajariladi?

Birinchi topshiriqda uchraydigan tayanch soʻzlar:


Kompozitsiya, komponovka, masshtab, nisbat, gʻoya, eskiz, klauzura, landshaft.

BAJARILGAN LOYIHALAR TAHLILI


BOLALAR O'YIN MAYDONCHASI

Rahbar: D.A. Asqarova

Talaba: O. Roziqov



tarx M 1: 50



qirgim M 1: 25

BOLALAR
MAYDONCHASI

Loyiha g'oyasi negiziga qadimgi qasrlarga kirish joyini eslatuvchi darvoza asos qilib olingan. Qadimgi qasr darvozasini eslatuvchi bolalar maydonchasi xiyobonlarga, bolalar istirohat bog'lariga, turar joy, mikrorayonlardagi bolalar maydonchalariga o'rnatishga mo'ljallangan. Loyiha doskaga gorizontol holatda doskaning tepa qismiga fasad atrof-muhit bilan ko'rsatilgan. Uning pastki qismida esa reja, bosh reja hamda perspektiv ko'rinish, qirqim atrof-muhit bilan ko'rsatilgan.

Loyiha grafik usulda to'g'ri hal qilingan. Ranglar to'g'ri tanlangan. Loyiha doskaga to'g'ri komponovka qilingan. Loyiha talaba oldiga qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi.

Talabalar 1-kursdanoq dastlabki loyiha ishlarini bajarishlariga yordam beradigan, bir-biri bilan uzviy bog'liq fanlarni o'rganishadi. Me'moriy kompozitsiyadan, grafikadan olgan bilimlarini ushbu kurs loyihasida qo'llaydilar.



Talaba O. Roziqov grafikadan olgan bilimlarini ushbu loyihada mohirona qo'llagan. Doskaga yaxshilab komponovka qilib chizilgan loyihaga anturaj chiziladi. Anturaj chizmadan ajralib, birinchi ko'rinishga chiqib ketishi kerak emas, ya'ni inshoot me'morchiligini ko'rsatishga xalaqit bermasligi kerak.

Fasadning atrofini ifodalovchi daraxtlar inshoot nisbatlariga, shakllariga mos kelmog'i kerak. Daraxt inshoot nisbatlaridan katta yoki kichik bo'lmisligi lozim. Tanlab chizib bo'lingan daraxtlar grafik usulda tush, pero bilan chiziladi. Loyihaga tugallik berishda anturajning ahamiyati katta. Ushbu loyihada anturajdan unumli foydalanilgan.

ISTIROHAT BOG'IGA KIRISH DARVOZASI

Rahbar: M.X. Miryusupova

Talaba: I. Sadiqov



Istirohat bog'iga kirish darvozasi mumtoz usulda bajarilgan. Bu kirish joyining darvozasi roman uslubida bajarilgan yodgorliklarni eslatadi. Vazifa gorizontol holatda doskaning tepa qismiga fasad atrof-muhiti bilan ifoda etilgan.

Doskaning past qismida reja, bosh reja, qirqim hamda doskaning past qismida esa perspektiv ko'rinishi atrof-muhiti bilan ko'rsatilgan. Darvoza ustunlari g'ishtdan terilgan, panjaralari esa metaldan yasalgan.

Loyiha grafik usulda bajarilishi juda ham to'g'ri hal etilgan. Vazifani ifoda etishdagi ranglar to'g'ri tanlangan. Talaba oldiga qo'yilgan vazifa a'lo darajada hal etilgan. Vazifa talablarga to'liq javob beradi.

Loyiha roman uslubidagi inshootlarga taqlid qilingan holda loyihalangan. Loyiha ko'rinishi murakkab, mustahkamlik kasb etadi. Ustunlar pishiq g'ishtdan terilgan bo'lib, bu ustunlar yuzasida biroz o'yilib ichkari kirgan relyefli arka mavjud.


Ustunning tepa qismi arkadan sal yuqoriroq, tepa qismidan tushib turgan yorug' soya, o'ziga xos ko'rinish kasb etadi. Metaldan yasalgan panjaralar ham loyihaga juda mos tanlangan.

Loyiha anturaji rangli bo'yoqda bajarilgan. Rangli anturaj loyihaning ko'rinishiga xalaqit bermaydi. Aksincha, loyiha haqidagi taassurotni boyitadi. Loyiha grafikasi nozik did bilan bajarilgan.

BOLALAR O'YIN MAYDONCHASI

Rahbar: D.A. Asqarova


Talaba: Sh. Xudoyberganov




tarz M 1 : 25



qirgim M 1 : 25




tarx M 1 : 25



bosh tarx M 1 : 100

**BOLALAR
MAYDONCHASI**



Bolalar o'yin maydonchasi bolalar istirohat bog'lari-ga, bolalar bog'chasiga, turar joy mikrorayonlariga qurilish uchun mo'ljallangan. Yog'ochdan ishlangan bolalar o'yin maydonchasining yog'ochdan ishlangan shiypon-chasi «tovuq oyog'iga» o'rnatilgan.

Atrof devorlari baland-past yog'och devorlardan, loyiha doskaga gorizontal holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismida fasad, qirqim atrof-muhiti bilan ifoda etilgan. Pastki qismida reja, bosh reja, doskaning pastki qismida perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan ifoda etilgan.

Loyiha grafik usulda to'g'ri hal etilgan. Vazifa talaba oldiga qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi.

Talaba Sh. Xudoyberganov «Kompozitsiya asoslari», «Grafika» fanidan olgan bilimlarini mohirona qo'llagan. Loyiha doskaga to'g'ri komponovka qilingan, biroq perspektiv ko'rinishni joylashtirganda biroz mo'ljaldan yanglishgan.


Inshoot atrofidagi devorning pastki qismi joylashmay qolgan. Atrofidagi devor to'liqligicha tasvirlanishi kerak edi. Loyihaga tanlangan anturaj grafik usulda yaxshi ifoda etilgan. Tanlangan daraxtlar loyiha ko'rinishiga mos keladi. Nisbatlari to'g'ri topilgan.

Reja grafikasi ham yaxshi bajarilgan. Rejadagi daraxt-larning grafik ifodalanishi ham to'g'ri. Bosh reja va atrof-muhitning grafikasi yaxshi ifodalangan.

KO'PRIK

Rahbar: D.A. Asqarova

Talaba: B. Kazakov



Uni ko'prik yoki bo'lmasa, o'tish joyi desak ham bo'ladi. Bu ko'prik uncha katta bo'lmagan ariqlarga, anhorlarga yoki bo'lmasa, istirohat bog'larida sun'iy tashkil qilingan ko'llarga o'rnatishga mo'ljallangan. Bolalar istirohat bog'laridagi uncha katta bo'lmagan suv havzalariga o'rnatishga mo'ljallangan o'tish joyi hamda shiypon vazifasini o'taydi. Shiypon o'tish joyi Xitoy uslubida bajarilgan.

Loyiha doskaga vertikal holatda joylashtirilgan. Doskani tepa qismiga fasad atrof-muhiti bilan joylashtirilgan. Doskani past qismida reja, bosh reja joylashtirilgan. Doskani past qismida esa qirqim perspektiv ko'rinish bilan uyg'unlikda ko'rsatilgan. Vazifa grafik usulda to'g'ri ifoda etilgan. Fasadni hamda perspektiv ko'rinishni ifoda etish uchun tanlangan ranglar bir-biri bilan uyg'unlashtirilgan.

Talaba B. Kazakov «Grafika» fanidan olgan bilimlarini to'liq qo'llagan holda loyihani juda nozik did bilan ifoda etgan. Loyiha yaxlit bir butun ko'rinish kasb etadi. Loyiha doskaga yaxlit bir butun shaklda o'tish joyi rasmi ko'rinishini ifodalaydigan ko'rinishda tasvirlangan. Loyihada reja, qirqim, bosh reja, perspektiv ko'rinishlar anturajlar bilan uyg'unlikda ifodalangan.


Tanlangan daraxt, o'simliklar loyiha xarakteriga, nisbatlariga mos kelishi kerak, aks holda, u begona ko'rinish hosil qiladi. To'g'ri tanlangan anturaj bir butunlik — yaxlitlikni tashkil etadi. B. Kazakov tanlangan daraxtlar loyihaga juda mos keladi. Suv, sohil, atrof-muhit juda mohirona ifodalangan.

Ko'prik fasadida Xitoy me'morchiligi san'atiga xos bo'lgan ajdaho tasviri ham o'rinli qo'llanilgan. Ushbu ko'prik bolalar xiyobonlariga, istirohat bog'lariga, hayvonot bog'lariga qurish uchun mo'ljallangan.

SHIYPON

Rahbar: D.A. Asqarova

Talaba: V. Kon





Shiypon g'oyasi to'g'ri hal qilingan. Shiyponning umumiy ko'rinishi ochiq turgan soyabonni eslatadi. Shiypon konstruksiyasi yengil hal etilgan. Shiypon parklarga, xiyonbonlarga, bolalar maydonchalariga o'rnatishga mo'ljallangan. Loyiha doskaga quyidagicha joylashtirilgan: yotiq holatda doskaning tepa qismida fasad hamda bosh tarx joylashtirilgan. Doskaning pastki qismida rejaning umumiy ko'rinishi, undan pastroqda esa qirqim joylashtirilgan. Komponovka to'g'ri hal qilingan deyishimiz mumkin. Ammo bosh tarxni doskaning pastki qismida joylashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Grafik jihatdan yaxshi bajarilgan. Tanlangan ranglar mutanosibligiga erishilgan. Umuman olganda, vazifa talaba oldiga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

KUZATUV MAYDONCHASI

Rahbar: D.R. Nosirova

Talaba: Sh. Nosirov



KUZATUV MAYDONCHASI

Loyiha g'oyasi juda ham ajoyib hal etilgan. Ushbu loyiha bolalar istirohat bog'lariga, ko'p qavatli turar joy massivlaridagi bolalar maydonchalariga qurishga mo'ljallangan.

Loyiha g'oyasiga ko'ra maydonchadan aylanasiimon zina orqali tepaga — kuzatuv maydonchasiga ko'tariladi. Tepadan esa atrof-muhitni tomosha qilish mo'ljallangan. Loyiha g'oyasi bolalar o'yinlariga xos hal etilgan.

Loyiha doskaga yotiq holatda komponovka qilingan, tepa qismiga perspektiv ko'rinish hamda fasad, bosh reja uyg'unlashgan holda juda ham ajoyib hal etilgan. Pastki qismida esa qirqim, reja joylashtirilgan. Loyihaning grafik holda hal qilinishi to'g'ri bajarilgan.

Loyihani grafik holda aks ettirishga tanlangan ranglar bolalarga xos yorqin ranglardan foydalanilgan holda bo'yalgan. Loyiha g'oyasi, komponovkasi, grafik bajarilishi talaba oldiga qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi.




Talaba Sh. Nosirov grafikadan olgan bilimlardan loyihani bajarishda mohirona foydalangan. Loyiha komponovkasi noan'anaviy o'ziga xos tarzda hal etilgan. Perspektiv ko'rinish asosiy diqqatga sazovor chizma hisoblanadi, fasad, reja, qirqim, bosh reja chizmalarining nisbatlari to'g'ri tanlangan.

Loyihani ifodalash uchun tanlangan daraxtlar, o'simliklar, mohirona ifodalangan. Fasad, o'simliklar, daraxtlar nisbatlari ko'rinishi loyihaga mos keladi. Loyihani doskaga chizib, bo'yab, tush bilan ifoda etib bo'lgach, uning yozuvlari, o'lchamlari qo'yiladi. Loyihaning shakliga, kompozitsiyasiga qarab shrift tanlanadi. Tanlangan shrift loyiha xarakteriga mos kelishi kerak.


SHIYPON

Rahbar: M.X. Miryusupova

Talaba: N. Kovshova



SHIYPON




Shiypon loyihasi juda ham nozik did bilan hal qilingan. Loyiha g'oyasiga bog'ga mo'ljallangan shiypon asos qilib olingan. Ushbu shiypon istirohat bog'lariga, bog'larga, bolalar istirohat bog'iga, hayvonot bog'lariga va xiyobonlarga qurishga mo'ljallangan. Ushbu shiyponni tabiiy suv bo'ylariga yoki sharsharalar oldiga ham qursa bo'ladi. Shiypon nisbatlari hamda qo'llanilgan shakllari juda ham yaxshi hal etilgan. Shiyponda qo'llanilgan panjaralar ham juda nozik did bilan tanlangan. Shiyponga olib boruvchi yo'llar sun'iy yoritgichlar bilan bezatilgan. Loyiha doskaga to'g'ri komponovka qilinib, doskaga tik holda joylashtirilgan, tepa qismiga esa fasad atrof-muhiti bilan joylashtirilgan. Doskaning pastki qismida fasad, qirqim, bosh reja va eng pastki qismida perspektiv ko'rinishi aks ettirilgan. Loyiha grafik usulda juda ham yaxshi bajarilgan. Doska foni bir xil rang bilan bo'yab olingan. Fonda fasad hamda perspektiva shu fonga yaqin qilib bo'yalib ajratilgan. Loyiha g'oyasi, doskadagi komponovkasi, grafik bajarilishi jihatlaridan talaba oldiga qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi.

Talaba N. Kovshova «Grafika» fanidan olgan bilimlarini to'la tatbiq etgan. Grafika fani talabalarga chizma, loyiha, yozuv, son, daraxt, tosh, g'isht va hokazolarni grafik usulda qanday ifoda etilishini o'rgatadi. Talaba loyihani doskaga komponovka qilib, qalamda chizib bo'lganidan keyin, doskaning hammasi bir xil rang bilan bo'yab olingan. Shundan so'ng fasadni aniqlashtirib, ya'ni bo'rttirib ko'rsatishga erishilgan. Perspektiva ko'rinishi ham xuddi fasaddagidek ko'rsatilgan. Reja, qirqim, bosh reja chizmalari esa biroz ochroq ranglarda ifoda etilgan. Doskani bir xil rang bilan bo'yab olish ham grafik ifodani bir imkoni, ifodasi hisoblanadi. Loyiha bajarilishi o'ziga xos tarzda ifodalangan. Loyihalashga tanlangan daraxtlar inshoot nisbatlariga, shakllariga mos ravishda tanlangan. Anturajdan o'rinli foydalanilgan.

SHIYPON

Rahbar: D.A. Asqarova


Talaba: F. Seyfitdinov



SHIYPON



kesim M 1 : 50



Loyiha asosiga xiyobonlarga o'rnatishga mo'ljallangan shiypon tanlangan. Shiypon shaklan aylana shaklidagi rotondani eslatadi. Aylana bo'ylab o'rnatilgan ustunlar mumtoz usulda bajarilgan. Xiyobonga o'rnatilgan shiypon suv bo'yiga qurilishga mo'ljallangan. Shiyponga ko'prik orqali o'tiladi. Vazifa juda ham to'g'ri hal etilgan. Loyiha doskaga tik holatda tepa qismida perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan tasvirlangan. Pastki qismida esa fasad, qirqim, reja hamda bosh reja joylashtirilgan. Vazifa bajarilishi jihatidan biroz rangtasvir (vazifasiga) ishiga o'xshab ketadi. Shiyponga ko'prik orqali o'tilishida atrofi bog' ekanligi ko'rsatilgan. Tanlangan ranglar tabiatdagi ranglarga o'xshash grafik jihatdan juda ham to'g'ri va original bajarilgan.





Talaba F. Seyfiddinov «Grafika» fanidan olgan bilimlaridan to'liq foydalana olgan. Loyiha komponovkasi ham o'ziga xos ravishda hal etilgan. Asosiy e'tibor perspektiv ko'rinishga qaratilgan. Doskaning ko'p qismini perspektiv ko'rinishni atrof-muhiti bilan egallagan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, loyiha ko'proq rangtasvir ishiga o'xshab ketgan. Loyihalanayotgan shiypon tabiat qo'ynida, rangli daraxtlar, bog' qo'ynida oq rangli shiypon ajralib turib, o'ziga xos ko'rinish kasb etgan.

Loyihani ushbu tarzda ifodalash talabadan tajriba, bilim talab qiladi. Har bir talaba ham ranglardan erkin foydalana olmaydi. Shiypondan ko'prik orqali o'tiladi. Suv, suv chegaralari panjara bilan bezatilgan. Suv ranglarda ifodalangan. Tarz, reja, bosh reja, qirqim chizmalari kichik nisbatlarda, ikkinchi ko'rinishda ko'rsatilgan. Yozuvlari, loyihaga mos keladigan shrift bilan yozilgan. Tanlangan shrift ham loyihani ifodalashga yordam berishi kerak.


SUVENIRLAR SOTISH UCHUN MO'LJALLANGAN DO'KONCHA

Rahbar: D.R. Nosirova

Talaba: S. Morozov



SUVENIRLAR SOTISH
UCHUN MO'LJALLANGAN
DO'KONCHA



Loyiha g'oyasiga asos qilib kichkinagina suvenirlar sotishga mo'ljallangan ochiq do'koncha olingan. Do'koncha loyihasi yengil kompozitsion jihatdan ixcham yog'ochdan ishlangan. Ushbu do'koncha savdo markazlari, me'moriy yodgorliklar oldiga xiyobonlarda qurilishga mo'ljallangan.

Loyiha doskaga gorizontal holatda tepa qismida fasad atrof-muhiti bilan ko'rsatilgan. Pastki qismida qirqim reja, bosh reja doskaning past qismida esa perspektiv ko'rinish aks ettirilgan. Loyiha doskaga to'g'ri komponovka qilingan. Loyihaning grafik ifoda etilishi a'lo darajada bajarilgan. Fasad bilan perspektiv ko'rinishni ifoda etish uchun yog'ochni ifoda etuvchi ranglardan foydalanilgan. Talaba o'z oldiga qo'yilgan vazifani to'liq bajargan. Vazifa kamchiliklardan xoli.

Talaba S. Morozov «Grafika» fanidan olgan bilimlarini to'liq qo'llay olgan. Loyihani ifoda etishda asosan tarz bilan perspektiv ko'rinishga alohida e'tibor berib, ular birinchi ko'rinishda ko'zga tashlanadi. Reja, qirqim, tarx, bosh tarx chizmalari ikkinchi ko'rinishda ifodalangan. Loyiha qurilish materialiy yog'ochdan iborat. Yog'och tabiiy yog'ochga o'xshab ifodalangan.


Yog'ochning rangi, fakturasi o'ta mahorat bilan ifodalangan. Loyiha qadimgi rus me'morchiligidagi yog'ochli uylar, cherkovlarga taqlid qilingan holda bajarilgan, aylana shaklidagi yog'ochlar mixsiz, bir-biriga biriktiriladi.

Loyihani ifodalashda anturajdan o'rinli foydalanilgan. Tanlangan anturaj loyiha ko'rinishiga xalaqit bermaydi, aksincha uni to'ldiradi. Tanlangan daraxtlar osuda tabiiy ko'rinish kasb etadi. Perspektiv ko'rinishda esa do'koncha joylashgan maydonga zina orqali tushiladi.

BOLALAR O'YIN MAYDONCHASI


Rahbar: D.A. Asgarova

Talaba: S. Kasimovskiy



kesim M 1 : 50

fasad M 1 : 50



BOLALAR
O'YIN
MAYDONCHASI




bosh reja M 1 : 100

Bolalar o'yin maydonchasi juda qiziqarli qilib hal etilgan. Loyiha g'oyasi to'g'ri hal qilingan. Loyiha g'oyasi asosida eski oyoq kiyimi asos qilib olingan. Eski oyoq kiyim asosida bolalar o'yin maydonchasi tashkil etilgan. Loyiha doskada to'g'ri joylashtirilgan. Doska tik qo'yilgan holda tepa qismiga perspektiva ko'rinishi atrof-muhiti bilan tasvirlangan. Doskaning past qismida loyiha fasadi, qirqimi, rejasi hamda bosh rejasi tasvirlangan. Loyiha ranglari yaxshi tanlangan. Yumshoq ranglardan foydalanilgan. Grafik qismi tush bilan obvotka qilingan. Yozuvlari ham loyihaga mos qilib yozilgan, umuman olganda, loyiha g'oyasi doskaga joylashuvi, texnik bajarilishi jihatidan barcha talablarga to'liq javob beradi.


BOLALAR O'YIN MAYDONCHASI

Rahbar: M.X. Miryusupova


Talaba: M. Doroshenko




fasad M 1:25



reja M 1:25



bosh reja M 1:100



kesim M 1:25

BOLALAR O'YIN MAYDONCHASI

Bolalar o'yin maydonchasi g'oyasi asosida bolalarga xos teremok loyihalangan.

Bolalar o'yin maydonchasi bolalar istirohat bog'lari-da, bolalar bog'chalarida, turar joy mikrorayon bolalar maydonchalarida qurilishi mo'ljallangan. Loyihada bitta yopiq uycha bo'lib, to'rt tarafida zinalari mavjud. U zinalar orqali chiqib, sirpanib tushishga mo'ljallangan. To'rtta zina oldida esa tulki haykali o'rnatilgan. Doskaga yotiq holat-da joylashtirilgan. Doskaning tepa qismida fasad va perspektiva ko'rinishi atrof-muhiti bilan ko'rsatilgan. Past-ki qismida reja, bosh reja va qirqim ko'rsatilgan. Loyiha doskaga yaxshi komponovka qilingan. Loyihada grafigi-ning ifodalanishi yaxshi yoritilgan. Tanlangan ranglar mu-tanosibligiga erishilgan. Yozuvlari ham loyihaga mos tan-langan. Talaba qo'yilgan barcha talablarni bajargan. U barcha talablarga javob beradi.

DAM OLISH JOYI

Rahbar: D.A. Asqarova


Talaba: F. Halilov



tarz M 1:25




qirqim M 1:25



tarx M 1:25



bosh tarx M 1:100



DAM OLISH JOYI



Dam olish joyi loyihasi o'ziga xos hal etilgan. Dam olish joyi yog'och va toshdan qurilgan. Dam olish joyi bolalar istirohat bog'lariga qurilish uchun mo'ljallangan. Yog'ochga ishlov berib, hovuzcha va taxta devor tashkil etilgan. Loyiha doskaga yotiq joylashtirilgan. Doskaning tepa qismiga fasad va qirqim joylashtirilgan. Pastga reja, bosh reja, perspektiv ko'rinish joylashtirilgan. Loyiyaning grafik ifoda etilishi biroz konstruktiv chizmaga o'xshab qolgan. Mayin, nafis ifoda etilmagan. Rejadagi daraxtlar birinchi ko'rinishga chiqib qolgan.

Yozuvlari ham biroz qo'pol yozilgan. Umuman, vazifa talablarga javob beradi.


DAM OLISH JOYI

Rahbar: V.N. Manakova

Talaba: B. Muhammadiyev



DAM OLISH
JOYI



Dam olish joyi istirohat bog'i xiyobon, bolalar istirohat bog'i va hayvonot bog'larida qurish uchun mo'ljallangan. Dekorativ devor g'ishtdan terilgan, uning oldida uncha katta bo'lmagan aylana shaklidagi favvora, o'rtasida esa tabiiy toshlar terilib, sopol ko'zalar o'rnatilgan. Bittasit holda, ikkitasi esa yotqizilgan holda joylashtirilgan. Ko'zaning ichidan suv chiqib turadi u esa sun'iy sharsharani tashkil etadi. G'ishtli devor davomida yog'ochli panjara tashkil etilgan. Favvora oldida o'rindiqliq tashkil etilgan. Loyiha doskaga yotiq holatda joylashtirilgan.

Talaba «Grafika» fanidan olgan bilimlarini, tajribasini loyiha ifodasiga tatbiqliq eta olgan. Loyiha biroz murakkab bo'lib unda bir necha elementlarni bir-biriga bog'lab, bir butun kompozitsiya tuzishga erishilgan. Dekorativ devor, favvora, toshlar, sopol ko'zalar, yog'och panjara, shularning hammasini bir-biriga bog'lab, bir butun kompozitsion ko'rinish tashkil etilgan. Ularning hammasini grafik ifodalash talabadan mahorat, bilim talab qiladi. Talaba loyihani grafik ifodalashda ranglardan unumli foydalangan. Lekin ba'zi bir joylarida biroz bo'rttirib, me'yoridan sag'al o'tkazib yuborgan.





Favvora atrofiga o'rindiqlar ham o'rnatilgan. Loyihani ifodalash uchun anturajdan unumli foydalanilgan. Favvora va uning atrofidagi o'rindiqlar grafikada to'g'ri ifoda etilgan.

Doskaning tepa qismida fasad, qirqim, pastki qismida esa reja, bosh reja hamda perspektiv ko'rinish ifoda etilgan. Loyiha doskaga to'g'ri komponovka qilingan. Loyihani grafik ifodalash uchun tanlangan ranglar mutanosibligiga erishilgan. Lekin fasadda ko'zani ko'rsatish uchun tanlangan ranglar biroz to'qliq bo'lib, qirqimda ham toshlar bilan ko'za ranglari to'qlashib ketgan. Umuman loyiha to'liqliq bajarilgan. Talablarga javob beradi.

SOYABON

Rahbar: D.R. Nosirova

Talaba: A. Hamroqulov



SOYABON

Soyabon loyihasi juda yengil konstruksiyali qilib bajarilgan. U ochiq soyabonni eslatuvchi shakldan iborat. Soyabon tagida o'rindiqli joylashtirilgan.

Soyabon markazida esa favvora o'rnatilgan. Ushbu soyabon xiyobonlarga, istirohat bog'lariga o'rnatish uchun mo'ljallangan. Soyabonni grafik ifoda etish uchun tanlangan ranglar bir-biri bilan bog'langan.

Loyiha doskaga tik holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismida fasad va qirqim, pastki qismida esa perspektiv ko'rinish qirqim, undan pastida bosh reja va reja joylashtirilgan. Yozuvlari ham juda nozik hal etilgan. Loyiha doskaga yaxshi kompanovka qilingan. Talaba oldiga qo'yilgan barcha talablar bajarilgan.

Talaba A. Hamroqulov loyihalash uchun kerakli bo'lgan «Kompozitsiya asoslari», «Grafika» fanlarini o'zlashtira olganini namoyish etgan. A. Hamroqulov erkin fikrlay oladi. Loyiha g'oyasi, zamonaviy qurilish materiallaridan unumli foydalangan holda erkin, nozik, zamonaviy hal etilgan.


Loyihani grafik taqdim etilishi, tanlangan ranglar, chizma nisbatlari kishini o'ziga jalb etadi. Loyihani ifodalashda tarz ko'rinishiga katta e'tibor bergan. Perspektiv ko'rinishga ham ahamiyat berib, ikkinchi o'rinda ko'rsatilgan.

Tarzni ifodalash uchun ranglardan unumli foydalanilgan. Loyihaning atrof-muhitini ifodalash uchun anturajdan to'g'ri foydalanilgan. Tanlangan daraxtlar loyiha nisbatlari, shakllariga xalaqit bermaydi. Aksincha, ularni to'ldiradi.


ISTIROHAT BOG'IGA KIRISH JOYI

Rahbar: M.X. Miryusupova


Talaba: R. Olimjonov




fasad M 1:25



reja va bosh reja M 1:50



kesim M 1:25



ISTIROHAT BOG'IGA
KIRISH JOYI

Istirohat bog'iga kirish joyi turli xilda bo'lishi mumkin. U Botanika bog'i, bolalar istirohat bog'i bo'lishi mumkin.


Ushbu kirish joyida to'rtta ustun arka bilan birlashtirilgan, ustun tagi platoformaga ega. Ustunlar atrofi metall panjaralar bilan davom ettirilgan. Loyiha juda yengil, nozik bajarilgan.

Loyiha tushda grafik usulda bajarilgan. Loyiha vertikal holatda joylashtirilgan. Loyiha doskada tepa qismida fasad atrof-muhiti bilan birga ko'rsatilgan. Pastki qismida reja, bosh reja birga ifoda etilgan, qirqim, pastki qismida esa perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan ifoda etilgan. Loyiha yozuvlari ham loyihaga xos moslangan. Yozuvlar ham loyihani to'ldirib turadi. Loyiha doskaga to'g'ri komponovka qilingan. Talaba oldiga qo'yilgan barcha talablar bajarilgan.

DAM OLISH JOYI

Rahbar: M.X. Miryusupova

Talaba: G. Torasenko



Dam olish joyi istirohat bog'ining ichida joylashgan. Dekorativ devor oldida favvora tashkil etilgan. Dam olish joyi relyefda joylashganligi uchun tepaga chiqish joyida zina ham tashkil etilgan. Dekorativ devor rangli sopol detallar bilan bezatilgan. Favvoraga ham metall plastinalar o'rnatilgan.

Loyiha doskaga gorizontol holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismida fasad atrof-muhiti bilan ko'rsatilgan. Doskaning pastki qismida reja, bosh reja hamda perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan ko'rsatilgan.


Loyiha doskaga juda yaxshi komponovka qilingan.

Loyiha grafikasi tush bilan juda nozik bajarilgan, fasadni ifoda etish uchun ranglar mutanosibligiga erishilgan. Umuman olganda, loyiha talabga to'liq javob beradi.

DAM OLISH JOYI

Rahbar: D.A. Asgarova

Talaba: I. Ubaydullayev



Dam olish joyini tashkil qilish uchun chig'anoqni eslatuvchi shakl tanlab olingan. Chig'anoq devori rangli mozaika bilan bezatilgan.

Loyiha juda nozik did bilan tasvirlangan. Loyiha doskaga gorizontal holatda joylashtirilgan. Doskaning yuqori qismiga fasad, qirqim, pastki qismiga esa reja, bosh reja hamda perspektiv ko'rinish tasvirlangan.

Loyiha grafikasi to'g'ri hal etilgan. Grafik ifoda etish uchun tanlangan ranglar mutanosibligiga erishilgan. Loyiha doskaga yaxshi komponovka qilingan, ortiqcha chiziqlar, ortiqcha anturajlardan xoli. Loyiha yozuvlari ham butun bir kompozitsion birlikni tashkil etgan.

Umuman loyiha talabga to'liq javob beradi. Talaba oldiga qo'yilgan vazifa a'lo darajada bajarilgan.

Talaba I. Ubaydullayev «Grafika», «Kompozitsiya», «Rangtasvir», «Rasm» fanlarini yaxshi o'zlashtirayotganligini namoyish etgan. Chunki loyiha grafikasi o'ziga xos ishonch bilan, erkin ifodalangan. Chig'anoqni eslatuvchi mozaika bilan bezatilgan.


Mozaikani ifodalash uchun tanlangan ranglar bir-biri bilan mutanosib tanlangan. Tanlangan ranglar tarqoq emas, balki bir butunlikni tashkil etadi. Loyihada biror-bir ortiqcha rang, chiziq yo'q. Loyiha haqiqiy «mo'jaz» kichik me'moriy shaklni tashkil etadi.

Loyihani ifoda etishda tarz, perspektiv ko'rinish birinchi o'rinda ko'rsatilgan. Reja, bosh reja, qirqim chizmalari esa ikkinchi o'rinda ko'rsatilgan.

BOLALAR O'YIN MAYDONCHASI


Rahbar: X.Sh. Po'latov

Talaba: D. To'ymurodov



fasad M 1:25

reja M 1:50



bosh reja M 1:100


0.13

0.20

0.25

0.30

0.35



kesim M 1:25

BOLALAR
O'YIN
MAYDONCHASI


Bolalar o'yin maydonchasi uchun baliq ko'rinishidagi shakl tanlab olingan. Ikki shakl o'rtasi yarim aylana shakl bilan birlashtirilgan. Baliq og'ziga zina orqali chiqib,

sirpanib tushishga mo'ljallangan. Ikki aylana birlashgan joyda eshik o'rnatilgan. Eshikdan chiqib, zina orqali ikkinchi shaklga o'tiladi. Loyiha doskaga vertikal holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismida fasad tasvirlangan. Pastki qismida reja, bosh reja pastki qismida esa qirqim, perspektiv ko'rinishi bilan tasvirlangan. Loyihani grafik usulda ifodalash uchun turli ranglardan foydalanilgan. Ranglarning bir-biri bilan uyg'unligiga erishilgan. Umuman olganda, doskaga loyiha yaxshi komponovka qilingan. Talaba oldiga qo'yilgan barcha talablar bajarilgan.

BOLALAR DAM OLISH MAYDONCHASI

Rahbar: D.A. Asqarova

Talaba: E. Brizjukova



Bolalar maydonchasi g'isht bilan metaldan qurilgan. Undan zina orqali chiqib, sirpanib qumga tushiladi. Bolalar maydonchasi bolalar bog'chalariga, bolalar istirohat


bog'lariga, turar joy mikrorayonlariga qurishga mo'ljallangan.

Doskaga gorizontal holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismiga fasad, yon fasad, pastida esa reja, bosh reja birgalikda perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan birga ko'rsatilgan. Loyiha grafik usulda yaxshi ifodalangan. Loyihani grafik usulda ifoda etish uchun bir-biri bilan bog'langan ranglar tanlangan. Tush bilan ham yaxshi ishlangan. Yozuvlari ham yaxshi tanlangan. Loyiha doskaga yaxshi komponovka qilingan. Talaba oldiga qo'yilgan barcha talablar bajarilgan.


FAVVORA

Rahbar: M.X. Miryusupova


Talaba: N. Melnikova




fasad M 1:20



kesim M 1:20



bosh reja M 1:50



FAVVORA

Favvora istirohat bog'lariga, xiyobonlarga, maydonlarga qurish uchun mo'ljallangan. Favvora loyihasi mumtoz usulda hal etilgan. Favvora loyihasini grafik usulda hal qilish uchun bir xil rang tanlab olingan. Fasad bilan perspektiv ko'rinish bir xil rangda ifoda etilgan, qirqim, bosh reja bir xil tushda ifoda etilgan.

Talaba N. Melnikova «Grafika», «Kompozitsiya», «Rangtasvir», «Rasm» fanlarini yaxshi o'zlashtirayotganini namoyish eta olgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, «Grafika» fanida juda ko'p usullar mavjud. Talabalar o'zlariga yoqqan, o'zlari bajara oladigan usullardan foydalanadilar.

Ushbu loyiha ham o'ziga xos tarzda ifodalangan. Loyihani ifodalashda bir xil rang qo'llanib anturajdan unumli foydalanilgan. Tanlangan daraxtlar fasadning ko'rinishiga xalaqit bermaydi. Favvora atrofi, maydoni grafikasi tabiiy ko'rinish kasb etadi.

Loyihani ifodalashda tarz bilan, perspektiv ko'rinish birinchi o'rinda ifoda etilgan. Qolgan chizmalar esa ikkinchi o'rinda ifoda etilgan. Talaba N. Melnikova dastlabki mustaqil loyihasini aniq va to'g'ri bajara olgan.


Loyiha doskada gorizontal holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismida fasad, qirqim, pastki qismida esa reja, bosh reja birgalikda perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan ko'rsatilgan. Loyiha doskaga yaxshi komponovka qilingan.

Loyiha yozuvlari ham loyihaga mos tanlangan. Talaba oldiga qo'yilgan barcha talablar bajarilgan.


FAVVORA

Rahbar: M.X. Miryusupova


Talaba: S. Muxtorxo'jayev



tarz M 1:25




tarx M 1:50



qirgim M 1:50

FAVVORA



Favvora loyihasi istirohat bog'lariga, xiyobonlarga qurilish uchun mo'ljallangan. Favvora qurilishi yengil, tabiiy qurilish materiallaridan iborat.

Favvora loyihasi qurishga mo'ljallangan yerdagi ochiq maydonga sakkiz qirraga mo'ljallangan joy tanlab olinadi. To'rt tomonida o'rindiqli tashkil etilgan. Sakkiz yarim aylana shakl, uning o'rtasida esa ikkita aylana shakl qurilib, o'rtasida baliq, uning atrofida baliqchalar o'rnatilgan.

Talaba S. Muxtorxo'jayev «Grafika», «Kompozitsiya», «Rangtasvir», «Rasm» fanlarini yaxshi o'zlashtira olganini ko'rsatdi. Favvora loyihasi o'ziga xos original hal etilgan. Asosi sakkiz qirradan iborat bo'lgan favvoraning o'rtasida o'rnatilgan baliq va baliqchalar grafik usulda yaxshi ifodalangan.

Talaba anturajdan o'rinli foydalangan. Loyihada ortiqcha biror-bir chiziq yoki noo'rin tasvirlanishni uch-ratmaysiz. Loyiha shakliga mos daraxt va o'simliklar o'rinli chizilgan. Loyihada fasad bilan perspektiva ko'rinishiga urg'u berilgan. Birinchi o'rinda fasad va perspektiva ko'rinishi, ikkinchi o'rinda esa reja, bosh reja, qirqim ifodalangan.

Loyihani ifodalash uchun ranglar, kompozitsion yechim, anturaj to'g'ri hal etilgan. Favvora o'rnatilgan baliq va baliqchalar nisbatlari mutanosibligiga erishilgan.

Loyiha vertikal holatda joylashgan. Doskaning tepa qismida fasad, pastki qismida reja, qirqim pastida perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan birga ifoda etilgan.

Loyihani grafik usulda ifoda etish uchun tanlangan ranglar uyg'unligiga erishilgan. Talaba oldiga qo'yilgan barcha talablar bajarilgan.

2-topshiriq

ICHKI MAKONGA EGA ANIQ KONSTRUKSIYALI VA MURAKKAB FUNKSIYAGA EGA KICHIK ME'MORIY SHAKLLARNI LOYIHALASH

1. Do'konchalar.
2. Muzqaymoq va salqin ichimliklar qahvaxonasi.
3. Dala hovli uchun uy.
4. Choyxona, biror-bir mahalla uchun mo'ljallangan kichik choyxona.
5. Shohbekat — uncha katta bo'lmagan rayonlararo.
6. Ovchilar uyi yoki baliqchilar uyi.
7. Gul do'koni va boshqalar.

Bu topshiriqlarni bajarishda talaba 1-bosqichdagi fanlardan o'rgangan bilimlari, ya'ni me'moriy loyiha, me'moriy kompozitsiya va me'moriy grafikadan unumli foydalangan holda, ulardan farqli o'laroq, mustaqil loyiha halashga qadam bosadi. Ana shuning uchun bu topshiriqlarda iloji boricha osonroq, to'g'rirog'i talaba fikrlashi uchun qulayroq mavzular tanlangan. Hammamizga ma'lumki, har bir soha va hunar bo'yicha o'qish va o'rganishdan asosiy maqsad, ana shu olgan bilimni yoki o'rgangan hunarni hayotga tatbiq qila olishdir.

Demak, talabalar ham birinchi bosqichdan hayotda, ishda uchraydigan to'siq va muammolarga o'rganib borishlari kerak. Ana shundan kelib chiqqan holda, bu vazifalarni quyidagi tartibda o'zlashtirish maqsadga muvofiq deb topdik.

Odatda, har qanday ish yuritish quyidagi oddiy tizim orqali olib boriladi.

Buyurtmachi har qanday imoratning loyihasini buyurganda, u xoh katta, xoh kichik bo'lsin, bundan qat'i nazar, birinchi navbatda, qurilmaning aniq joyini beradi. Ikkinchi navbatda, ana shu qurilmaga qurilish ashyolari bo'yicha qanday imkoniyati borligini aytadi.

Uchinchi esa buyurtmachi hattoki qurilmaning taxminan qanday kattalikka va qanday ko'rinishga ega bo'lishini ham ta'kidlaydi. Me'morning vazifasi yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o'z iste'dodini ishga solib, ajoyib inshoot yaratishi kerak bo'ladi. Shuning uchun bu topshiriqlarni bajarishda birinchi qilinadigan ish, talaba o'qituvchi bilan birga u yoki bu qurilish uchun biron bir aniq joy tanlaydi. Tanlangan joyga va berilgan mavzuga qarab, talaba g'oya o'ylay boshlaydi. Keyin bo'lajak qurilmaning hajm-fazoviy mushtarakligini topishga kirishadi. Bulardan tashqari, quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi: bosh tarx, tarx va tarzlarni parallel ravishda yoki bir vaqtning o'zida qog'ozda eskiz sifatida aks ettirish kerak. Bir vaqtning o'zida u loyihaning kompozitsion va konstruktiv jihatlarini ham hisobga olib chiqishi lozim. Albatta, xuddi ana shu vazifalar bilan bir qatorda inshootning qurilish ashyolari haqida ham unutmash kerak. Va oxirgi hamda eng ustuvor vazifa — bu inshoot — inson uchun, unga xizmat qilishi uchun yaratilishi kerakligi bois, eng avvalo, ana shunga qulaylik yaratishga e'tibor qaratishi shart.

Yuqorida keltirilgan topshiriqlarni qaysi biri bo'lishidan qat'i nazar, loyihalash jarayoni uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda tanlangan joyga qarab g'oya o'ylash, ikkinchi bosqichda ana shu g'oyani eskizlash, ya'ni g'oyani qog'ozga qoralama uslubda tushirish va klauzura qilib topshirish, uchinchi bosqichda u yoki bu

o'Ichamdagi taxtda bajarish. Qalamda bajarilgan vazifa quyidagi shartlarga bog'liq, ya'ni uning g'oyasiga, shakl-shamoyiliga, va nihoyat, o'Ichamlariga.

Loyiha taxtda ko'ngildagidek joylashtirilgandan so'ng uning qanday vazifaligiga va qanday chiqqanligiga qarab unga me'moriy grafika uslubi tanlash kerak bo'ladi.

Bu uslublarga quyidagilar kiradi:

1. Akademik yuvish uslubi.
2. Tush grafikasi uslubi.
3. Akvarelda bo'yash uslubi.
4. Aerografika uslubi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, taxtaga joylashtirishni ham, me'moriy grafika uslubini tanlashni ham, albatta, talabaning o'zi olib boradi. Bu yerda o'qituvchining vazifasi talabaga faqat to'g'ri yo'l ko'rsata bilishdir.

Ichki makoni va konstruksiyasi bor, biroz funksiyasi bor kichik me'moriy shakl.

Birinchi topshiriqni muvaffaqiyatli topshirgan talabalarda endi sal murakkabroq topshiriq bajarishga ehtiyoj seziladi. Shuning uchun ushbu topshiriqda sarlavhada keltirilgan mavzular talab qilinadi. Ko'rib turganimizdek, talaba mustaqil loyihalash, ya'ni haqiqiy me'mor cho'qqisiga pog'onama-pog'ona, bosqichma-bosqich uncha qiynalmasdan erishmoqda. Ushbu topshiriqqa talaba birinchi topshiriqdagichalik qiynalmasdan qadam bosadi. Birinchi topshiriqdan farqli o'laroq, ikkinchi topshiriqda binoning vazifasi biroz murakkablashadi. Lekin talaba buni uncha sezmaydi. Bundan tashqari bu topshiriqda biroz bo'lsa-da, ichki makon paydo bo'ladi (interyer) va yengil bo'lsa-da, konstruksiya paydo bo'ladi. Bu topshiriqda yuqoridagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajargan talaba loyihani yuqori ballga topshiradi deb ayta

olamiz, ularning konstruksiyasiga ham ta'sir qiladi. Bularning hammasi binoning kompozitsiyasiga, tashqi ko'rinishiga va shakliga, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatadi.

DO'KONCHALAR (RASTALAR)

Hammamizga ma'lumki, O'zbekiston o'zining qo'li gul hunarmandlari, kosiblari, chevarlari bilan butun dunyoga ma'lum va mashhurdir.

Talabalar oldiga mana shularini hisobga olgan holda hunarmandlar uchun haqiqiy me'mor sifatida kichik-kichik do'konchalar (rastalar) loyihasini yaratib berish vazifasi qo'yiladi. U do'konchalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Pichoqchi do'koni.
2. Beshikchi do'koni.
3. Sandiqchi do'koni.
4. Taroqchi do'koni.
5. Charxchi do'koni.
6. Chegachi do'koni.
7. Telpakdo'z do'koni.
8. Chopondo'z do'koni.
9. Do'ppido'z do'koni.

O'zbekiston o'zining bozorlari va bozorlaridagi rastalari, do'konchalari bilan mashhur. Shuning uchun yosh me'morlar (talabalar) oldiga qo'yilgan vazifa, asosan, ana shu yuqorida sanab o'tilgan do'konlarga usta me'mor nuqtayi nazaridan qarab, loyihalash va iloji boricha yaxshi sharoit yaratib berishdir. Yana ana shu kichik inshootni atrof-muhit bilan kompozitsion jihatdan uzviy bog'lash kerak.

Bundan tashqari, talaba loyihani konstruktiv jihatdan to'g'ri hal qilib, qurilish ashyolarini bilib ishlatishga o'rganishi kerak bo'ladi.

XONALAR MAJMUASI VA MAYDONI

1. Beshikchi, sandiqchi, taroqchi do'konchalari:
 - a) ham ustaxona, ham mahsulot sotiladigan xona — 16—20 m²;
 - b) yordamchi xona — 6—8 m².
 2. Temirchi, misgar, pichoqchi do'konlari:
 - a) ham ustaxona, ham mahsulot sotiladigan xona — 20—24 m²;
 - b) yordamchi xona — 8—12 m².
 3. Chegachi, pichoq charxlovchi do'konchalari, qo'g'irchoq tuzatuvchi:
 - a) ham ustaxona, ham mahsulot sotiladigan xona — 16—20 m²;
 - b) yordamchi xona — 6—8 m².
 4. Kosib do'koni:
 - a) ham ustaxona, ham mahsulot sotiladigan xona 16—20 m²;
 - b) yordamchi xona — 6—8 m².
 5. To'n, do'ppi, qiyiqchalar qo'shma do'koni — 24 m².
 6. Jurnal, ro'znomalar do'koni — 8—10 m².
 7. Har xil chiptalar do'koni — 6—8 m².
- Bulardan tashqari, talaba ko'zda tutilmagan yana boshqa do'konchalar taklif qilishlari mumkin.

MUZQAYMOQ VA SALQIN ICHIMLIKLAR QAHVAXONASI

O'zbekistonda issiq iqlim sharoitidan kelib chiqib, talabalarga yuqoridagi vazifani topshirish joiz deb topildi. Muzqaymoq qahvaxonasini loyihalash uchun asosan shahar va tuman markazlari yoki bolalar bog'lari, xiyobonlarga yaqin joylarni tavsiya etiladi. Muzqaymoq qahva-

xonasi loyihalanadigan yer talaba tomonidan yaxshilab o'rganiladi. Tanlangan yer xiyobonmi, istirohat bog'imi, o'sha yerning atrof-muhiti bilan, hajm-fazoviy kompozitsion tuzilishini uzviy bog'lay olish bilan bir qatorda konstruktiv jihatdan to'g'ri hal qilinishi hamda qurilish ashyolarini to'g'ri tanlay bilish va g'oyani qog'ozda to'la aks ettirish lozim.

Muzqaymoq qahvaxonasi, uncha katta bo'lmagan hamda vazifasi sodda bo'lgan inshoot bo'lib, konstruktiv jihatdan uncha qiyin bo'lmashligi kerak. Muzqaymoq qahvaxonasini jihozlashda mozaika vitraj, sopol, chekanka yoki yog'och, metall panjaralardan foydalaniladi.

QURILISH ASHYOLARI VA KONSTRUKSIYALARI

Tabiiy tosh, g'isht, beton, metall va boshqa ko'p biz tilga olmagan ashyolardan ham foydalanish mumkin.

XONALAR MAJMUASI VA MAYDONI

1. Savdo xonasi — 30—40 m².
2. Idishlar saqlash uchun xona — 9—10 m².
3. Idish yuvish xonasi — 9—10 m².
4. Yozda foydalaniladigan soyabon — 30—40 m².

Muzqaymoq qahvaxonasi joylashgan bog' yoki xiyobon atrofi ko'kalamzorlashtirilishi va har xil uslublarda, ya'ni: tabiiy tosh, g'isht, beton plitkalar va yana boshqa narsalar bilan yo'laklar jihozlanishi kerak.

Loyihada bajarilishi shart bo'lgan chizmalar majmuasi va ularning miqyosi

1. Bosh tarx M 1:200, M 1:100.
2. Tarx M 1:100, M 1:50.
3. Tarz M 1:100, M 1:50.
4. Qirqim M 1:100, M 1:50.
5. Tabiiy ko'rinish yoki maket.

LOYIHANING TAXTADA JOYLASHISHI VA UNI BO'YASH USLUBI

Loyiha bitta taxtada bajarilib, uning o'lchovi 55×75 sm.
Loyihaning grafikasi erkin uslubda, ya'ni:

1. Akademik yuvish (otmivka) uslubi.
2. Akvarel uslubi.
3. Tush grafikasi uslubi.
4. Aerografika uslubi.
5. To'rtta uslubdan aralash foydalanish ham mumkin.

LOYIHANING ASOSIY O'LCHAMLARI VA BELGILARI

Loyihada asosiy o'lchamlar va qirqimda asosiy balandliklarning belgilari (otmetka) qo'yilishi kerak.

Bulardan tashqari, loyiha kerakli yozuvlar, oliygohning nomi, talabanning ism-sharifi, guruhi va rahbarning ism-sharifini yozish bilan tugallanadi. Bu vazifaga 56 soat ajratiladi.

DALA HOVLI

Dala hovli bu vaqtincha yashab, dam olib ketishga mo'ljallangan uy hisoblanadi. Uni «bog' hovli» deb atasa ham bo'ladi. Chunki bu yerga kishilar asosan yozgi ta'til

vaqtlarida kelib yashashadi va dam olishadi. Bu yerda ular nafaqat dam olishadi, balki o'zlarining «chorbog'lar» bilan shug'ullanadilar, ya'ni hovliga har xil mevali daraxtlar o'tqazadilar turli ziravor va osh ko'katlari ekadilar va hatto sabzavotlar yetishtirib, qishga konserva ham yopib oladilar.

Yuqoridagi tavsiyanomani hisobga olgan holda xonalar majmuasi va maydoni quyidagicha bo'lishi mumkin:

- mehmonxona yoki umumiy xona — 15—30 m²;
- uxlash xonasi — 12—16 m²;
- oshxona — 8—10 m²;
- ayvon — 12—16 m²;
- garaj va hujra (yerto'la).

QURILISH ASHYOLARI VA KONSTRUKSIYASI

Ilgarigi kichik me'moriy shakllar loyihasidan bu o'zining konstruksiyasi bilan farq qiladi, ya'ni endi ancha yetilgan konstruksiyalar ishga tushadi. Masalan, devorlar paxsa, g'isht va sinchli bo'lishi mumkin yoki shiftlarga zamonaviy beton plitkalar bilan bir qatorda o'zimizning to'sin-toqilarni ham ishlatga bo'ladi. Demak, biz zamonaviy qurilish ashyolari bilan bir qatorda mahalliy ashyolar va konstruksiyalardan ham unumli foydalanishimiz kerak.

Loyihada bajarilishi shart bo'lgan chizmalar majmuasi va ularning miqyosi

1. Bosh tarx M 1:200, M 1:100.
2. Tarx M 1:100, M 1:50.
3. Tarz M 1:50, M 1:25.
4. Qirqim M 1:100, M 1:25.
5. Tabiiy ko'rinish yoki maket.

LOYIHANING TAXTADA JOYLASHISHI VA UNI BO'YASH USLUBI

Loyiha bitta taxtada bajariladi, uning o'lchovi 55×75 sm. Loyihaning grafikasi erkin uslubda ya'ni:

1. Akademik yuvish (otmivka) uslubi.
2. Akvarel uslubi.
3. Tush grafikasi uslubi.
4. Aerografika uslubi.
5. To'rtta uslubdan aralash foydalanish ham mumkin.

LOYIHANING ASOSIY O'LCHAMLARI VA BELGILARI

Loyihada asosiy o'lchamlar va qirqimda asosiy balandliklarning belgilari (otmetka) qo'yilishi shart. Bundan tashqari, loyiha kerakli yozuvlar, ya'ni oliygohning nomi, talabaning ism-sharifi, guruhi va rahbarning ism-sharifini yozish bilan tugallanadi.

OZCHILIKKA MO'LJALLANGAN KICHIK CHOYXONA

Bunday choyxonalar berilishiga qarab mahalla markazlarida, yarmarkalarda, guzar masjidlarining yonida, kichkina bozorchalarda, istirohat bog'lari va boshqa ko'p joylarda bo'lishi mumkin. Bu yerda talabalar o'qish davomida «Me'moriy kompozitsiya asoslari» fanidan olgan bilimlarini ishlata bilishlari kerak bo'ladi. Chunki loyihaning g'oyasini topishda va uni atrof-muhit bilan kompozitsion jihatdan bog'lash uchun ana shu bilimlar shubhasiz kerak bo'ladi. Bu loyihani bajarishda talabalar kompo-

zitsion va badiiy jihatidan, milliylik va zamonaviylik jihatidan juda katta imkoniyatlarga egadirlar. Chunki choyxona imorat sifatida tabiatan o'zining funksional hamda ichki imkoniyatlariga boydir.

QURILISH ASHYOLARI VA KONSTRUKSIYASI

Bu yerda beton, temir, g'isht yog'och konstruksiyalar bilan bir qatorda mahalliy ashyolar va konstruksiyalar ishlatilishi mumkin. Masalan, paxsa, sinch va boshqalar. Bezak va suvoq ishlarida ganch, tuproq, glazurlangan sopol plitkalar va boshqalar.

XONALAR MAJMUASI VA MAYDONI

- qishki xona — 30—40 m²;
- ayvon — 30—40m²;
- samovarxona — 10—12m² (yuvish joyi bilan);
- hujra — 12m².

Loyihada bajarilishi shart bo'lgan chizmalar majmuasi va ularning miqyosi

1. Bosh tarh M 1:200, M 1:100.
2. Tarh M 1:100, M 1:50.
3. Tarz M 1:100, M 1:50.
4. Qirqim M 1:100, M 1:50.
5. Tabiiy ko'rinish yoki maket.

LOYIHANING TAXTADA JOYLASHISHI VA UNI BO'YASH USLUBI

Loyiha bitta taxtada bajariladi, uning o'lchovi 55×75 sm. Loyihaning grafikasi erkin uslubda, ya'ni:

1. Akademik yuvish (otmivka) uslubi.
2. Akvarel uslubi.
3. Tush grafikasi uslubi.
4. Aerografika uslubi.
5. To'rttala uslubdan aralash foydalanish ham mumkin.

LOYIHANING ASOSIY O'LCHAMLARI VA BELGILARI

Loyihada asosiy o'lchamlar va qirqimda asosiy balandliklarning belgilari (otmetka) qo'yilishi shart. Bundan tashqari, loyiha kerakli yozuvlar, ya'ni oliygohning nomi, talabaning ism-sharifi, guruhi va rahbarning ism-sharifini yozish bilan tugallanadi.

Bu vazifaga 56 soat ajratiladi.

OVCHILAR VA BALIQCHILAR UYI

O'zbekiston sharoyitida ovchilar uyi asosan tog' va tog' yonbag'rlaridagi o'rmonlarda bo'lishi mumkin. Bunday uylarni loyihalashda, albatta, joyning sharoitiga katta e'tibor berishga to'g'ri keladi va hech qanday qulayliklar, ya'ni kommunikatsiyalar yo'q bo'lsa ham iloji boricha, uyni ichida yaxshi qulayliklar yaratib berish kerak bo'ladi. Chunki bunday yerlarda sharoit og'ir bo'ladi va yaqin atrofda aholi yashaydigan joylar bo'lmaydi.

Baliqchilar uyi esa asosan katta ko'l, dengiz va daryo bo'ylariga joylashadi va bu yerda ham yuqorida aytilgan sharoitlarni hisobga olib loyihalash lozim bo'ladi.

Ilgarigi ikkita topshiriqdan farqli o'laroq bu topshiriqda va aynan shu loyihada uning vazifasi ancha murakkabroqdir. Atrof-muhit ham ancha boshqacha, ya'ni imorat asosan tabiat qo'yniga loyihalanadi. Demak, bu kichik me'moriy shakllarda talaba imoratning funksional-texnologik tomonidan biroz qiynalib loyihalasa, uning o'rab turgan atrof-muhit bepoyonligi, talabaning ijod qilishga, nihoyatda qiziq loyihalar yaratishga, katta imkoniyatlar yaratib beradi. Albatta, bu yerda ham talaba imoratning atrof-muhit bilan kompozitsion jihatdan fazoviy-hajm bog'liqligini topishi kerak.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bu kichik me'moriy shakllar quyidagi xonalardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Umumiy va uxlash xonasi birga — 20—30 m².
2. Oshxona yoki o'choqxona — 10—12m².
3. Ayvon — 16—20 m².
4. Hujra — 10—12 m².
5. Garaj yoki juvozxona (ot-arava).

Yuqorida keltirilgan xonalarning bir qismini yerto'laga joylashtirish ham mumkin.

QURILISH ASHYOLARI VA KONSTRUKSIYALARI

Bu yerda, albatta, mahalliy qurilish ashyolaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, ya'ni yog'och va tabiiy tosh, tuproqdan.

Ikkinchi topshiriqni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kichik funksiyali, ichki makonga ega, konstruksiyali kichik shakllar nimalardan iborat?
2. Ikkinchi topshiriqqa qanday vazifalar kiradi?
3. Loyiyaning bajarilishi tartibini qanday vazifa va talablar tashkil etadi?
4. Loyiha tarkibi qanday chizmalardan iborat?
5. Loyiha qanday nisbatlarda bajariladi?

Ikkinchi topshiriqda uchraydigan tayanch so'zlar:


Modulor, texnik chizma, ishchi chizma, model, maket, fazo, muhit, funksiya.

BAJARILGAN LOYIHALAR TAHLILI


BALIQCHILAR UYI

Rahbar: D.A. Asqarova


Talaba: Z. Valiyeva



fasad M 1:50



kesim M 1:50



BALIQCILAR
UYI


Baliqchilar uyi relyefli tog'li suv bo'yida joylashgan.

Baliqchilar uyi suv bo'yida vaqtincha kelib, baliq tutib, uni quritib, ya'ni dudlab olish uchun mo'ljallangan mo'jaz uycha hisoblanadi. Loyiha doskaga vertikal holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismiga uzoqda fasad, yon fasad atrof-muhiti bilan ifoda etilgan. Pastki qismida esa qirqim, reja, undan pastda esa perspektiv ko'rinish va bosh reja joylashtirilgan. Loyiha grafik usulda juda yaxshi bajarilgan. Loyihani grafik usulda fasad va perspektiv ko'rinishini ifoda etish uchun tanlangan ranglar juda ham bir-biri bilan bog'langan, ranglar bilan ifoda etilgan qolgan chizmalar tushda bajarilgan. Yozuvlar ham yaxshi tanlangan. Loyiha doskaga yaxshi komponovka qilingan. Talaba oldiga qo'yilgan barcha talablar bajarilgan. Loyiha barcha talablarga javob beradi.

MUZQAYMOQ QAHVAXONASI

Rahbar: D.A. Asqarova

Talaba: Abdul-G'ani



MUZQAYMOQ QAHVAXONASI

Muzqaymoq qahvaxonasi rejada olti qirrali qilib loyihalangan. Olti qirra markazida turtib chiqqan fonar mavjud. Muzqaymoq qahvaxonasi yopiq xonalardan iborat. Agar ochiq xonasi, ya'ni yozgi zali mavjud bo'lganda maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bizning yozgi sharoitimizda istirohat bog'larida, xiyobonlarda joylashgan muzqaymoq qahvaxonalari ochiq bo'lgani yaxshi. Loyiha doskaga gorizontol holatda joylashtirilgan.

Doskaning tepa qismida fasad va perspektiv ko'rinishi atrof-muhiti bilan ko'rsatilgan. Pastki qismida reja, qirqim, bosh reja joylashtirilgan. Loyihani grafik usulda ifodalash uchun bir xil rang, ya'ni kul rangi tanlangan. Qolgan chizmalar esa tush grafikasida bajarilgan.

Talaba muzqaymoq qahvaxonasini biroz O'zbekiston iqlimiga mos ravishda loyihalamagan. Muzqaymoq qahvaxonasi asosan yozgi faslda ko'proq kishilarni o'ziga jalb qiladi. Muzqaymoq va salqin ichimliklar tanovul qilishga keluvchilar yoz faslida yopiq xonada o'zlarini biroz noqulay his qiladilar.

Muzqaymoq qahvaxonasi asosiga 6 qirra tanlab olingan. Muzqaymoq qahvaxonasi loyihasini ifodalashda talaba asosan perspektiv ko'rinish bilan fasad ko'rinishini birinchi o'rinda tasvirlagan. Ikkinchi o'rinda esa reja, qirqim, bosh reja chizmalari aks ettirilgan.


Loyihani ifodalash uchun faqat bir xil rangdan foydalanib, qahvaxona nisbatlari mutanosibligiga erishilgan. Tanlangan anturaj me'moriy inshoot ko'rinishiga xalaqit bermaydi.

Umuman, talaba oldiga qo'yilgan barcha shartlar bajarilgan.


DALA HOVLI

Rahbar: D.A. Asqarova


Talaba: N. Jalilova




fasad M 1:50



reja M 1:50



bosh reja M 1:200



kesim M 1:50

DALA HOVLI

Dala hovli loyihasi shahar tashqarisida oz vaqtga kelib, dam olib ketish uchun relyefli tog'li joyda qurish uchun mo'ljallangan. Loyiha doskaga vertikal holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismida fasad va perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan ifodalangan.


Pastki qismida esa reja, bosh reja, qirqim, pastki qismida esa qirqim va loyiha yozuvlari tasvirlangan. Ummun, doskaga yaxshi komponovka qilingan. Loyiha oq-qora grafik usulda ifoda etilgan. Ranglardan xoli. Loyihani ifoda etishda bir oz xatolikka yo'l qo'yilgan, u ham bo'lsa, perspektiv ko'rinishni kattaroq qilib, pastda ko'rsatish mumkin edi.

Reja esa kichikroq qilib ko'rsatilishi mumkin edi. Ushbu kamchiliklar bartaraf etilganda loyiha a'lo darajada bajarilgan deyishimiz mumkin edi. Talaba oldiga qo'yilgan barcha talablar bajarilgan.

DALA HOVLI

Rahbar: D.A. Asqarova

Talaba: Ye. Soy



Dala hovli tog'li rayonga qurish uchun mo'ljallangan. Tog'li, relyefli joyga loyihalangan dala hovli o'ziga xos zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanilgan holda loyihalangan.

Loyiha doskaga gorizontal holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismida fasad, qirqim, perspektiv ko'rinish joylashtirilgan.

Talaba Ye. Soy «Grafika», «Kompozitsiya», «Rangtasvir», «Rasm» fanlarini yaxshi o'zlashtirayotganini ko'rsatgan. Loyiha tog'li rayonda — relyefda joylashgan. Loyiha grafikasi keskin, yorqin ranglarda ifodalangan. Odatda, perspektiv ko'rinish yoki maket yasash talab qilinadi.

Ushbu loyihada aksonometrik ko'rinish aks ettirilgan. Loyiha ortiqcha anturajlardan xoli. Inshoot nisbatlari mutanosibligiga erishilgan.

Loyiha yozuvlari ham inshootga mos tanlangan. Odatda, fasad bilan perspektiv ko'rinishga e'tibor berish kerak bo'ladi. Ularni birinchi o'rinda ifoda etiladi, qolgan chizmalar, ya'ni reja, qirqim, bosh reja ikkinchi o'rinda ifodalangan.


Doskaning pastki qismida aksonometriya, reja va bosh reja joylashtirilgan. Loyiha biroz keskin ranglarda bo'yalgan. Doskaga yaxshi komponovka qilingan. Loyihani obvodka qilinganda devor qalinliklari tush bilan bo'yalishi kerak emas edi.

Umuman olganda, loyiha talabga javob beradi. Talaba oldiga qo'yilgan talablar bajarilgan.

CHOYXONA


Rahbar: D.A. Asqarova

Talaba: I. Borunov




fasad M 1:50


CH
O
Y
X
O
N
A



yon fasad M 1:100



reja M 1:100



bosh reja

Loyiha g'oyasi negizida kichik mahalla yoki istirohat bog'lariga mo'ljallangan choyxona binosi yotadi. Ushbu choyxona suv bo'yida, istirohat bog'i territoriyasida joylashgan bo'lishi mumkin. Konstruksiya asosan yog'ochdan ishlangan. Loyiha rejasiga ko'ra bitta qishki zal va bir necha yozgi — ochiq, suvga tushib turuvchi ayvonchalardan iborat. Loyiha doskaga tik holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismiga fasad joylashtirilgan. Doska markazida esa perspektiv ko'rinish tasvirlangan. Doskaning paski qismida reja, qirqim va bosh reja chizilgan. Loyiha grafikasi to'g'ri bajarilgan. Loyihani bajarishda ranglardan to'g'ri foydalanilgan. Yozuvlar ham sharqona uslubda yozilgan. Umuman olganda vazifa talabga javob beradi.


Talaba I. Borunov «Kompozitsiya asoslari», «Grafika», «Rangtasvir», «Rasm» fanlaridan olgan bilimlarini loyiha ifodasida qo'llay olgan. Loyiha doskaga o'ziga xos tarzda joylashtirilgan, ya'ni perspektiv ko'rinish doska markazida joylashgan. Sharqona choyxonalar O'zbekistonning issiq iqlimi sharoitiga moslab loyihalalanadi, quriladi.

I. Borunov tomonidan loyihalangan ushbu choyxona ham suv bo'yida, ya'ni choyxona yarim suvga tushib turadi. Ustunlar suv ustida choyxonani ko'tarib turadi. Bu esa, o'z navbatida, choyxonaga kelib dam oluvchilarga ancha qulayliklar yaratadi. Choyxonaning qurilish materiallari yog'ochdan. Yog'och fakturasi, rangi yaxshi topilgan. Loyihalalanayotgan choyxona nisbatlari mutanosibligiga erishilgan. Loyihada asosiy urg'u perspektiv ko'rinishga qaratilgan. Loyihani ifodalashda anturajdan o'rinli foydalanilgan. Tanlangan anturaj inshootning ko'rinishiga xalaqit bermaydi.

BALIQCCHILAR UYI

Rahbar: D.A. Asqarova

Talaba: N. An



Loyiha g'oyasi asosida suv havzalari, oqar suvlar, anhorlar, dengizlar bo'ylarida qurilishi mo'ljallangan kichik, mo'jaz baliqchilar uyi loyihasi yotadi. Loyiha juda nozik,

yengil konstruksiyali qilib hal etilgan. Loyiha doskaga yotiq holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismiga fasad atrof-muhiti bilan birga hal etilgan. Quyi qismida reja, qirqim, eng pastki qismida esa maket joylashtirilgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, talaba ixtiyoriga qarab perspektiv ko'rinish yoki maket ishlanadi.

Loyiha grafikasi yaxshi bajarilgan. Ranglar to'g'ri tanlangan. Yozuvlari loyihaga mos holda yozilgan. Vazifa talabga to'liq javob beradi. Talaba o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajara olgan.

OVCHILAR UYI

Rahbar: D.R. Nosirova

Talaba: S. Morozov


Loyiha g'oyasi asosida o'rmonlarga mo'ljallangan ovchilar uyi loyihasi hal etilgan. Ovchilar uyi loyihasi talaba tomonidan o'ziga xos yengil konstruksiyali qilib bajarilgan. Loyiha doskada juda yaxshi komponovka qilingan. Doskaga tik holatda joylashtirilgan.

Doskaning tepa qismida fasad, reja, sal pastroqda qirqim, pastki qismida reja loyiha nomi joylashtirilgan.

Doskaning quyi qismida esa bosh reja va perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan tasvirlangan.

Loyihani to'liq bajarishda grafika va bo'yoqdan to'g'ri foydalanilgan. Vazifa to'liq talabga javob beradi. Talaba o'zi oldiga qo'yilgan vazifani to'g'ri hal eta olgan.

Talaba S. Morozov «Kompozitsiya», «Grafika», «Rang-tasvir», «Rasm» fanidan olgan bilimlarini o'z loyihasini ifodalashda qo'llay olgan. Loyiha doskaga kompakt joylashtirilgan. Loyihada asosiy urg'u maketga berilgan. Fasad qismi ham grafik jihatdan ajratib ko'rsatilgan. Loyiha fasadi ortiqcha anturajdan xoli.




Inshoot nisbatlari yaxshi topilgan. Loyihani ifodalashda ranglardan o'rinli foydalanilgan. Yon ko'rinish ham rangda ko'rsatilgan. Qolgan chizmalar ikkinchi o'rinda ko'rsatilgan. Bosh reja atrof-muhiti bilan birgalikda, aniq ko'chalar, yo'llar, daraxt, o'simliklari bilan birga ifodalangan.

Loyiha yozuvlari ham loyihaga moslab yozilgan. Loyiha g'oyasi zamonaviy bino sifatida, zamonaviy qurilish materiallari yordamida qurilishga mo'ljallangan.

DALA HOVLI

Rahbar: D.R. Nosirova

Talaba: J. Yakovlev



Dala hovli shahar tashqarisidagi so'lim bahavo joylarda qisqa muddat dam olib qaytish uchun mo'ljallangan. Dala hovli uncha katta bo'lmagan, asosan, bitta dam olish xonasi, yotoqxona va oshxonadan iborat.

Ushbu dala hovli o'ziga xos tarzda hal etilgan. Loyiha doskaga gorizontal holatda joylashtirilgan. Doskaning tepa qismiga reja, bosh reja, qirqim atrof-muhiti bilan joylashtirilgan.

Doskaning pastki qismida esa fasad va perspektiva ko'rinishi atrof-muhiti bilan tasvirlangan. Loyiha grafikasi juda mahorat bilan bajarilgan. Tanlangan ranglar uyg'unligi topilgan. Loyiha talaba oldiga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Talaba J. Yakovlev «Kompozitsiya», «Grafika», «Rangtasvir», «Rasm» fanlaridan olgan bilimlarini o'z loyihasida mujassamlashtira olgan. Loyiha o'ziga xos tarzda bajarilgan. Loyiha grafikasi ham ajoyib hal etilgan.


Loyihada asosiy e'tibor maketga berilgan. Maketda relyefli joyni yaxshi ko'rsata olgan. Loyihada fasad ham bir-biri bilan mutanosib ranglarda ifoda etilgan. Loyihada birinchi o'rinda fasad va perspektiva ko'rinishi ifodalangan. Loyihadagi reja, qirqim chizmalari ikkinchi o'rinda chizilgan. Loyiha g'oyasi juda ajoyib, g'ayritabiiy hal etilgan. Zamonaviy.

Loyiha odatda oq vatmanga chiziladi. J. Yakovlev sariq rangdagi qog'ozga chizgan. Doskaga yaxshi kompozitsiya qilingan chizmalarni chizib bo'lib, doskaning hammasini bir xil rangga bo'yab olgan. Maketda relyefni ko'rsatish uchun qog'ozni g'ijimlab ifodalagan. Loyiha original tarzda noan'anaviy tarzda talqin etilgan. Talaba J. Yakovlev loyiha g'oyasidagi barcha fikrlarini grafikada ifodalay olgan.


MUZQAYMOQ QAHVAXONASI

Rahbar: V.N. Manakova


Talaba: S. Yunusov




fasad M 1:50



reja M 1:100




kesim M 1:50



bosh reja M 1:100

MUZQAYMOQ
QAHVAXONASI



Muzqaymoq qahvaxonasi bitta qishki yopiq zal va ochiq yozgi xonadan iborat. Loyiha konstruksiyasi yengil yog'och va g'ishtdan iborat. Loyiha sodda va oddiy baja-

rilgan. Loyihani ifoda etish uchun ranglardan foydalanilgan emas. Loyiha tushda grafik usulda bajarilgan.

Loyiha doskaga yotiq holatda joylashtirilgan. Doskani tepa qismida fasad atrof-muhiti bilan ifoda etilgan, pastki qismida esa reja, qirqim, undan keyin esa bosh reja, perspektiv ko'rinish atrof-muhiti bilan ifoda etilgan.

Loyiha doskaga yaxshi komponovka qilingan. Loyiha yozuvlari ham nozik loyihani to'ldirib turuvchi bir butun kompozitsiyani tashkil etadi. Loyiha talaba oldiga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Talaba S. Yunusov «Kompozitsiya», «Grafika», «Rangtasvir», «Rasm» fanlarini o'zlashtirganligini namoyish qilgan.

Muzqaymoq qahvaxonasi O'zbekistonning issiq iqlim sharoitiga moslashtirilgan, ya'ni qishki va yozgi xonalardan iborat. Muzqaymoq qahvaxonasi loyihasiga qarab, darrov uning qahvaxonaligini aniqlash qiyin.

Loyiha juda sodda, tashqi ko'rinishi jiddiy tasvirlangan. Biror bir bezaklardan holi. Uni grafik ifodalashda ham bir-bir bo'yoqlardan foydalanib, ranglar hisobiga uni biroz yengil ko'rinishga keltirish mumkin edi.

Loyiha oq-qora rangda tush bilan bajarilgan. Loyiha yozuvlari ham jiddiy, loyihaga mos tanlangan. Loyiha nisbatlari va anturaj mutanosibligiga erishilgan.

XULOSA

«Kichik me'moriy shakllar» kurs loyihasi talabalarini eng sodda me'moriy inshootlarni loyihalashga o'rgatadi. Talabalar eskizlar chizish, kompozitsiyadan ko'p-dan-ko'p mashqlar qilish orqali, ijodiy yo'l bilan bo'ljak inshootning loyihaviy modelini (shaklini) yaratishni o'zlashtiradilar. Ijodiy o'ziga xoslikni rivojlantirish, estetik va badiiy jihatlarni paydo qilish, fazoviy tarzda fikr yuritishni shakllantirish, grafika jihatidan usta bo'lish, ijodiy dunyoqarashning shakllanishini ta'minlab berish va hokazo. Shularning hammasi «Me'moriy loyihalash» fanining asosiy maqsadi va vazifasidir. Qurilish ashyolari va konstruksiyalari to'g'risida tushuncha paydo bo'ladi. Yuqorida keltirilgan «Kichik me'moriy shakllar» o'zlarining funksional jihatlari, konstruktiv va texnologik jihatlari, me'moriy yechimlari, tarziy va tarxiy yechimlari, kompozitsion jihatlari bilan turli-tuman bo'lgani kabi, ularga ishlatiladigan qurilish ashyolari ham turlichadir.

Yosh me'morning asosiy vazifasi ana shu qurilish ashyolarini inshootning o'ziga qarab tanlay bilishi va uni joy-joyiga ishlata bilishidir. «Kichik me'moriy shakllar» haqida qisqacha tushuncha shundan iboratki, bunda «kichik» — degan so'z, uning boshqa inshootlarga nisbatan kichikroq bo'lganligini ifodalash uchun aytilgan bo'lib, ma'no jihatdan hech boshqa inshootlardan qolishmaydi. Ya'ni har qanday inshootni xoh u kichik bo'lsin, xoh u katta bo'lsin uning g'oyasini o'ylab topish kerak bo'ladi. Bu esa oson jarayon emas. Lekin tajriba shuni ko'rsa-

tadiki, «Kichik me'moriy shakllar» boshqa inshootlarga nisbatan ancha kichik bo'lganligi uchun, uning loyihasiga nisbatan kamroq vaqt ketadi va birinchi qadamini ana shu topshiriqdan boshlash to'g'ri bo'ladi.

«Kichik me'moriy shakllar» ning shaharsozlikda o'z o'rnini bor. «Kichik me'moriy shakllar» ni berilgan joyning shart-sharoitiga, atrof-muhitga kompozitsion jihatdan uzviy bog'lash me'morning mahoratiga, bilimiga va iqtidoriga bog'liqdir. «Kichik me'moriy shakllar» ikki bosqichda bajariladi. Birinchi kursni endi bitirgan talaba uchun birdan mustaqil ravishda loyihalash, yangi bir inshoot ustida g'oya o'ylab topish va uning loyihasini amalga oshirish qiyin. Ana shuning uchun «Kichik me'moriy shakllar» ni shartli ravishda ikki bosqichda loyihalashadi. Birinchi bosqich vazifasi «Funksiyasi juda ham sodda ichki makonsiz kichik me'moriy shakl» ni loyihalash. Bularga dam olish joyi, buloq va hovuz atrofida dam olish joyi, kichik ko'priklar va charxpalaklar, bolalar o'yin maydonchalari kiradi. Ikkinchi bosqichda «Ichki makonga ega aniq konstruksiyaviy va murakkab funksiyaga ega bo'lgan kichik me'moriy shakllar» ni loyihalashni kiritish mumkin. Bularga do'konchalar, muzqaymoq va salqin ichimliklar qahvaxonasi, dala hovli, ozchilikka mo'ljallangan kichik choyxona, ovchilar va baliqchilar uyi kiradi.

Me'moriy loyihalashga o'rgatish jarayoni oddiy, sodda shakllardan boshlanadi, keyinchalik ular o'zlarining funksional tuzilishi, o'lchamlarining kattalashishi va konstruktiv asosining murakkablashishi va loyihalanayotgan inshootning takomillashib borishi bilan xarakterlanadi. Shularni o'rgangan talaba tobora qurilish amaliyotiga, real loyihalashga ko'nikma hosil qiladi. Me'moriy loyihalash kursida talaba oldiga uncha katta bo'lmagan

inshootni loyihalash va funksional uncha murakkab bo'lmagan vazifalar qo'yiladi, ya'ni konstruktiv sodda, bosh tarxda erkin joylasha oladigan inshoot bo'lishi kerak.

Ushbu o'quv qo'llanmada talabalar uchun loyiha haqida tushuncha, ko'nikma, loyihalashning nimadan boshlanishi, uning o'lchamlari, nisbatlari, qurilish materiallari haqida tasavvur hosil qilish haqida tushunchalar hamda talabalar kurs ishlaridan namunalar keltirilib, ularning tahlili berilgan. Darsga qatnasha olmagan talaba qo'llanma bilan tanishib, kurs loyihasini qanday bajarish kerakligi haqidagi barcha savollar yuzasidan to'liq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, O'zbekiston, 1998.
2. *Викторов А.М.* «Природный камень в архитектуре». Москва, 1983.
3. *Гинзбург В.П.* «Керамика в архитектуре». Москва, 1983.
4. *Рабинович В.И.* Книга об архитектуре. Москва, 1973.
5. *Горбачев В.Н.* «Архитектурно-художественные компоненты озеленения городов». Москва, 1983.
6. Введение в архитектурное проектирование учебник для ВУЗов. Москва, Стройиздат, 1984.
7. *Иконников А.В., Степанов Т.П.* Основы архитектурной композиции, М., Искусство, 1981.
8. *Бархин Б.Г.* Методика архитектурного проектирования. Москва, 1982.
9. *Arxitekturaviy loyihalash asoslari*. O'quv qo'llanma, TAQI, 2000.
10. *М. Roziqberdiyev*. Kichik arxitektura shakllari, Toshkent, TASI, 1995.
11. Наглядные альбомы студенческих работ выполненные на кафедре «Истории и теории архитектуры» ТАСИ, 1980—2002.
12. *Зайцев К.Т.*, Современная архитектурная графика. Москва, 1981.
13. *Зайцев К.Т.* Методические альбомы. Современная архитектурная графика. Москва, 1970.

MUNDARIJA

Kirish	3
Kichik me'moriy shakllar va ularning yaratilishida qurilish materiallarining ahamiyati	4
Talabaniing ilk ijodiy loyihasi	11
Inson va fazoviy muhit	14
Kichik me'moriy shakllar	15
Qurilish ashyolari va konstruksiyalari	15
1-topshiriq	20
Funksiyasi juda ham sodda ichki makonsiz kichik me'moriy shakllarni loyihalash	20
Dam olish joyi	21
Shiypon (dam olish joyi)	22
Xonalar majmuasi va maydoni	23
Buloq va hovuz atrofida dam olish joyi (so'ri bilan shiypon)	23
Dam olish joyining o'lchami, maydoni va majmuasi	23
Kichik ko'priklar va charxpalaklar	24
Bolalar o'yin maydonchalari	25
Bajarilgan loyihalar tahlili	27
Bolalar o'yin maydonchasi	27
Istirohat bog'iga kirish darvozasi	29
Bolalar o'yin maydonchasi	31
Ko'prik	33
Shiypon	35
Kuzatuv maydonchasi	36
Shiypon	38
Shiypon	40
Suvenirilar sotish uchun mo'ljallangan do'koncha	42
Bolalar o'yin maydonchasi	44
Bolalar o'yin maydonchasi	45
Dam olish joyi	46
Dam olish joyi	47
Soyabon	49
Istirohat bog'iga kirish joyi	51
Dam olish joyi	52

Dam olish joyi	53
Bolalar o'yin maydonchasi	55
Bolalar dam olish maydonchasi	56
Favvora	57
Favvora	59
2-topshiriq	61
Ichki makonga ega aniq konstruksiyali va murakkab funksiyaga ega kichik me'moriy shakllarni loyihalash	61
Do'konchalar (rastalar)	64
Xonalar majmuasi va maydoni	65
Muzqaymoq va salqin ichimliklar qahvaxonasi	65
Qurilish ashyolari va konstruksiyalari	66
Xonalar majmuasi va maydoni	66
Loyihaning taxtada joylashishi va uni bo'yash uslubi	67
Loyihaning asosiy o'lchamlari va belgilari	67
Dala hovli	67
Qurilish ashyolari va konstruksiyasi	68
Loyihaning taxtada joylashishi va uni bo'yash uslubi	69
Loyihaning asosiy o'lchamlari va belgilari	69
Ozchilikka mo'ljallangan kichik choyxona	69
Qurilish ashyolari va konstruksiyasi	70
Xonalar majmuasi va maydoni	70
Loyihaning taxtada joylashishi va uni bo'yash uslubi	71
Loyihaning asosiy o'lchamlari va belgilari	71
Ovchilar va baliqchilar uyi	71
Qurilish ashyolari va konstruksiyalari	72
Bajarilgan loyihalar tahlili	74
Baliqchilar uyi	74
Muzqaymoq qahvaxonasi	75
Dala hovli	77
Dala hovli	78
Choyxona	80
Baliqchilar uyi	82
Ovchilar uyi	83
Dala hovli	85
Muzqaymoq qahvaxonasi	87
Xulosa	89
Foydalanilgan adabiyotlar	92

D.A. Asqarova, M.X. Miryusupova

KICHIK ME'MORIY SHAKLLAR

Kasb-hunar kollejlari talabalari uchun o'quv qo'llanma

«Turon-Iqbol» — 2005

Muharrir *A. Ziyodov*
Badiiy muharrir *J. Gurova*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Musahhih *S. Abdunabiyeva*
Kompyuterda tayyorlovchi *Ye. Gilmutdinova*

Bosishga ruxsat etildi 15.12.2005. Bichimi $84 \times 108^{1/32}$.
Shartli b.t. 5,04. Nashr b.t. 4,94. Nusxasi 500 dona.
Buyurtma №185.

«Arnaprint» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, H.Boyqaro ko'chasi, 41.